

MUHABBAT JUMANIYOZOVA  
ANORGUL ATAJONOVA

---

# ONA TILIDAN MASHQLAR TO'PLAMI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**MUHABBAT JUMANIYOZOVA  
ANORGUL ATAJONOVA**

# **ONA TILIDAN MASHQLAR TO'PLAMI**

**TOSHKENT  
2021**

Сканировано с CamScanner



Сканировано с CamScanner

**UO'K: 811.512.133(076.1)**

**KBK: 81.2(5Ўзб)я7**

**J-87**

Jumaniyozova, Muhabbat

Ona tilidan mashqlar to‘plami: [Matn]: metodik qo‘llanma /  
M.Jumaniyozova, A. Atajanova – T.: Bayoz, 2021. – 48 b.

**Mualliflar:**

f.f.n., dotsent M.Jumaniyozova

f.f.n., dotsent A.Atajonova

**Taqrizchilar:**

f.f.n., dotsent I.Hajiyeva

f.f.n., dotsent S.Ollaberganova

“Ona tilidan mashqlar to‘plami” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi B-5111700 “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi kunduzgi va sirtqi bo‘limi talabałari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2020-yil 14-avgustda tasdiqlangan “Ona tili” fani o‘quv daşturi asosida tayyorlangan. Unda ona tilining fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya va morfologiya bo‘limlari yuzasidan mashq va topshiriqlar keltirilgan. Bu qo‘llanma “Ona tili” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil qilish, egallangan nazariy bilimlar yuzasidan ko‘nikma va malaka hosil qilishda yordam beradi.

**UO'K: 811.512.133(076.1)**

**KBK: 81.2(5Ўзб)я7**

**ISBN 978-9943-6370-3-0**

© “BAYOZ”, 2021

© Sh. Atajanova 2021

Сканировано с смартфона



Сканировано с CamScanner

## **SO‘Z BOSHI**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamalakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi muvofiq ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirishga, zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minalashga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu esa ta’lim muassasalarida ona tilini o‘qitish metodikasini yanada takomillashtirish vazifasini qo‘yadi. Binobarin, ta’limda oldin ko‘proq nazariy masalalar asosiy o‘rinni egallagan bo‘lsa, endilikda tildan amaliy foydalanish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini mustaqil o‘rganish dolzarblik kasb etmoqda.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma xalq ta’limi uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash Davlat standartlari dasturi talablari asosida tuzildi. Unda ona tilining fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, uslubiyati, punktuatsiyasi bo‘yicha olingan bilimlarni real sharoitda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha amaliy mashq va topshiriqlar o‘z aksini topgan. Bu mashq va topshiriqlarni bajarish yo‘llari ham belgilangan bo‘lib, bunda talab qilingan shartlar asosida ularni bajarishda talabalarning ona tilidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlanadi hamda ularning o‘z ustida mustaqil ishlashi ta’milanadi.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanmada ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqlik tamoyili asosida mashqlar tarkibiga kiritilgan gaplar, xalq maqollari va hikmatli so‘zlar tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ular yosh avlodning ma’naviy tarbiyasida muhim o‘rin tutishiga diqqat qilindi.

Mashqlar to‘plamida talabalarning ona tili grammatikasi qoidalarini puxta o‘zlashtirishlariga, mantiqiy tafakkurlari rivojlanishi hamda ularning yozma va og‘zaki nutqini o‘stirishga alohida e’tibor berildi.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanmani tayyorlashda boshqa mualliflar tomonidan oliy o‘quv yurtlarida ona tili o‘qitish bo‘yicha nashr etilgan darslik va qo‘llanmalar, mashqlar to‘plami, shuningdek, o‘zbek tilshunosligidagi nazariy va o‘quv-uslubiy adabiyotlar asos qilib olindi.

## TILSHUNOSLIK DAN UMUMIY MA'LUMOT

### ***1-mashq. Quyidagi savollarga javob bering.***

1. Tilning qanday tavsiflari mavjud?
2. Til nima uchun ijtimoiy hodisa sanaladi? Fikringizni misollar bilan izohlang.
3. O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili maqomidagi ahamiyatini qanday tushunasiz?

### ***2-mashq. Quyidagi savollarga javob bering.***

1. Milliy til va adabiy ti tushunchalariga izoh bering.
2. Adabiy tilning qanday shakllari mavjud?
3. Og‘zaki va yozma adabiy tilga doir qisqacha matn tuzing.
4. O‘z shevangizda “Talaba bo‘ldim” mavzusida qisqacha matn tuzing. Shu matnni adabiy tilda ham ifodalang, ularning farqli tomonlarini izohlang.

### ***3-mashq. Quyidagi savollarga javob bering.***

1. Tilning paydo bo‘lishi haqida qanday qarashlar mavjud?
2. Tillarning taraqqiyoti haqida gapiring.
3. Tillar qanday tasnif qilinadi?
4. O‘zbek tiliga tasnif bering.

## FONETIKA

### ***1-mashq. Quyidagi savollarga javob bering.***

1. Nutq apparati nima?
2. Nutq a’zolari qaysilar? Ularning vazifasini tushuntiring.
3. Nutq tovushlari nima? Ularning boshqa tovushlardan farqini ko‘rsating.
4. O‘zbek tilidagi nutq tovushlari haqida ma’lumot bering.

### ***2-mashq. Quyidagi gaplardai ostiga chizilgan so‘larning unli tovuslarini toping va ularni tahlil qiling.***

*Namuna: a- tilning gorizontal harakatiga ko‘ra til oldi; tilning vertikal harakatiga ko‘ra quyi-keng; lablarning ishtirokiga ko‘ra lablanmagan unli tovush.*

1. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi. (I.Karimov.) 2.Bu gaplarning barini Hafiza xomush va oqilona\_tinglardi. (M.) 3. Atrofi ko‘k panjaralar bilan o‘ralgan ulkan bog‘ darvozasidan kiraverishda uch qavatli shinam bino savlat to‘kib

turibdi. (J.Abd.) 4. Yo‘lchi qishloqdan keltirgan xaltasini kampirga uzatdi. (O.) 5. Dard davosi bilan tarqaladi. (maqol)

***3-mashq. Gaplarni o‘qing. Ostiga chizilgan so‘zlardagi undosh tovushlarni tahlil qiling.***

**Namuna:** s- *undosh tovush; hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til; til oldi undoshi; hosil bo‘lish usuliga ko‘ra sirg‘aluvchi undosh; ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra shovqinli; jarangsiz undosh tovush.*

1. Vijdon pokligi va bedorligi asrlar, zamonlar osha inson ma’naviyatining tayanch ustunlaridan biri bo‘lib kelmoqda. (I.Karimov.) 2. Daraxtni yer kokartiradi, Odamni el ko‘kartiradi. (Maqol) 3. E’tiroz bildirgan kishining tovushi supurgi bilan urilgan arining tovushiday birdan o‘chdi. (A.Q.)

4. Hovlining to‘rt tarafi turlik ehtiyoj binolari bilan va to‘rdagi binoning ikki biqini katta uylar bilan o‘ralgan bo‘lib bu ikki uyning orasig‘a o‘lturgan koshinkor va naqshin chorxari ayvon bu hovlining birinchi martaba ko‘zga chalinadirk‘an ortiqliklaridandir. (A.Qod.) 5. Daryoning quyi tomonida ko‘ringan sel oqimi o‘rkach-o‘rkach to‘lqinlari bilan yuqoriga qarab bostirib kelardi. (T.Mal.)

***4-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni tovush tomonidan tahlil qiling va ma’nosini izohlang.***

1. Dono- so‘z bilan, nodon- so‘z bilan. (maqol) 2. **Dehqonni** yer davolaydi. Urug‘ bilan birga orzu, dard-hasrat, **quvonchlarini** ham yerga to‘kadi. (S.Nurov.) 3. Gulnorning g‘oyib bo‘lishi **Yo‘lchiga** yashin urgan kabi ta’sir ko‘rsatdi. (O.) 4. Zufar **Hakimovichning** yuzida ham endi bezovtalik ifodasi yo‘q edi. (P.Q.) 5. Ona mehriga **tenglashadigan** mehr-muhabbat olamda topilarmikan? (Y.Sh.)

***5-mashq. Berilgan matnni fonetik birliklar (frazo (jumla), takt (sintagma), fonetik so‘z, bo‘g‘in, tovush)ga ajrating. Ularning har biriga xos xususiyatlarni aytинг.***

O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu – har tomonlama chuqur o‘ylab tanlangan yo‘ldir.

Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston ushbu mintaqqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘sni nichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir.

Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir.

O‘zbekiston o‘zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo‘sni chilikni mustahkamlashning qat’iy tarafdoridir.

Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hech istisnosiz barcha masalalar bo‘yicha oqilona murosa asosida hamkorlik qilishga tayyormiz.

Birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz tufayli keyingi oylarda mintaqamizda siyosiy ishonch darajasi sezilarli darajada oshdi. Ko‘plab masalalar bo‘yicha prinsipial jihatdan muhim yechimlar topishga erishildi. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan.)

***6-mashq. Ko‘chiring. Gaplardagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozing.***

1. Rais uning ko‘ziga kamsavlatroq ko‘rindi. (A.Q.) 2. Anjirlar obdan sarg‘aygan, anorlar endi piyoladay bo‘lib qizara boshlagan, kechki olmalarga rang kirayotgan, noklar hali ko‘m-ko‘k nosqovoqlarday osilib turgan fasl edi. (H.G‘.) 3. Farzand diydoriga tashna qalbi... Chinobod tomon parvoz qilishga undadi. (A.Nazarov.) 4. O‘ktamning sal suzuk ko‘zları endi beixtiyor ravishda hovlida aylanib qoldi. (O.) 5. Qishki imtihon kunlari yaqinlashgandi, dars tayyorlash uchun kechqurunlari fakultetga kelishga to‘g‘ri keldi. (A.Q.)

***7-mashq. So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrating va quyidagi jadvalga joylashtiring.***

<i>Faqat ochiq bo‘g‘inlardan iborat so‘zlar</i>	<i>Faqat yopiq bo‘g‘inlardan iborat so‘zlar</i>	<i>Aralash bo‘g‘inli so‘zlar</i>

1. Bo‘ynidan bog‘langan tozi ovga yaramaydi. (maqol) 2. Devorlari nurab qolgan hovlining kungay tomonidagi ayvonda keksagina bir xotin kamzuliga tugma qadab o‘tiribdi. (S.A.) 3. Amirzodamning so‘zları qulingizga sari toj bo‘lsin! Ertagayoq novvoylarga un berib, ochlarga non yoptirib tarqatishni men o‘z zimmamga olurman! (P.Q.) 4. Mehmonxona eshigini ochib gugurtni chaqqan vaqtida mehmonxonaning o‘rtasida ikki qulochini keng yozib Poshshoxon turardi. (Ch.A.) 5. Bilib qo‘ying, o‘rtoq Komilov! haqiqat

egiladi, lekin sinmaydi! Kelajak va tarix sizning bu xattiharakatlariningizni kechirmaydi! (O.Y.) 6. Yigit yalt etib qo'shni dalaga qaradi. U yerda xotin-xalajlar, bola-chaqalar chuvillashib paxta terishayotgan edi. (M.I.)

**8-mashq.** *O'qing. Gaplarni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inlarga ajratib, bo'g'inlarning turi va tuzilishini ayting.*

1. Murotali uning so'zlarini chidam bilan tinglab, uncha ham ishonmaganday boshlarini chayqardi. (Sh.R.) 2. Ayvonda bosma gulli bo'z ko'rpa yopilgan pastakkina tanchada qizlar o'tirardi. (O.) 3. To'g'ri, o'tgan kuni saharda rasadxonaga kirib kelgan ustod bu to'g'rida so'z ochmadi. (O.Y.) 4. Salohdor fonusni baland ko'targancha ro'paradagi eshikni ochib unga yo'l berdi. (O.Y.) 5. Ummatali boshqa gap so'ramadi. Ishini bitkazib egarga mindi-yu, xayr ham demay jo'nab ketdi. (S.A.) 6. – Ishing bo'lmasa kitob o'qi, husnixat ol: sen kulolning qizi emassanki... (A.Qod.)

**9-mashq.** *Quyidagi topshiriqlarni bajaring.*

1-topshiriq. Jadvalni to'ldiring. Har bo'g'in tuzilishiga ko'ra to'rtta misol keltiring.

2-topshiriq. So'zlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

<b>Bo'g'in tuzilishi</b>	<b>Misollar</b>
unli+undosh (VC)	
undosh+unli (CV)	
unli+undosh+undosh (VCC)	
undosh-unli-+undosh (CVC)	
undosh+unli+undosh+undosh (CVCC)	
undosh-unli+undosh+undosh+undosh (CVCCC)	

**10-mashq.** *Urg'u tushgan bo'g'inlarni aniqlang.*

1. To'riga quyma tilladan yasalgan o'ymakor kursi o'rnatilgan salomxona nimqorong'i edi. (O.Y.) 2. U, usta Hazratqul bilan xayrlashar ekan, qurilish materiallari olish uchun yordam qilishga va'da berdi. So'ngra, epchillik bilan Boychivorga mindi-yu, Oltinsoyga qarab yo'l oldi. (Sh.R.) 3. Lekin u otlanib, uyiga qaytayotganda sal hovuridan tushdi-yu, Uzun Hasan aytgan so'nggi gaplarda achchiq bir haqiqat borligini sezdi. (P.Q.) 4. Xobgohdan ikki xona narida hashamatli tanobiy uyda allaqachon tuzib qo'yilgan

dasturxon Mirzoga muntazir edi. (P.Q.) 5. Ko'ksaroyning kungurador devorlari qorong'ida cho'ng qoyaday haybatli tuyuladi. (O.Y.)

***11-mashq. Gaplarni o'qing. Urg'u olmaydigan qo'shimchalarni ko'rsating.***

1. Bahorda o'ylab ishlasang, Kuzda o'ynab bajarasan. (maqol) 2. Tanholik – shoirga dil ehtiyoji, xayolga oshnolik – buyuk baxtingiz. (E.V.) 3. Siz menga keraksiz, Men sizga keraksiz. (Jo'shchin.) 4. – Kuchukchamga uycha yasamoqchiman. (P.Q.) 5. Xuddi amerikaliklar zonasidagi bizning uycha keladi. (D.Kyusak.) 6. Qani ayting, bu qora ko'zlar neni ko'zlar. (M.I.) 7. Biz tavakkalchi qimorboz emasmiz. Biz xalq ishonch bildirib saylagan rahbarlarmiz. (Sh.R.) 8. Osmondan mayin, yengil qor uchqunlaydi. Ko'chalarimiz oppoq bo'ldi. (O.)

***12-mashq. O'qing. Urg'u qaysi bo'g'inga tushganini aniqlang.***

Akademik, alloma, agronom, benzin, bolalar, botanik, dasturxon, demokratiya, direktor, doklad, dollar, e'tibor, ekran, elektron, faza, frazeologiya, filarmoniya, Zamira, zona.

***13-mashq. Gaplarni o'qing va mantiqiy urg'u olgan so'zlarini aniqlang.***

1. To'g'ri, o'tgan kuni saharda rasadxonaga kirib kelgan ustod bu to'g'rida so'z ochmadi. (O.Y.) 2. Salohdor fonusni baland ko'targancha ro'paradagi eshikni ochib unga yo'l berdi. (O.Y.) 3. Ummatali boshqa gap so'ramadi. Bir-bir bosib tashqariga chiqdi. (S.A.) 4. – Ishing bo'lmasa kitob o'qi, husnixat ol: sen kulolning qizi emassanki... (A.Qod.) 5. Murotali uning so'zlarini chidam bilan tinglab, uncha ham ishonmaganday boshlarini chayqardi. (Sh.R.) 6. Ayvonda bosma gulli bo'z ko'rpa yopilgan pastakkina tanchada qizlar o'tirardi. (O.)

***13-mashq. So'z ma'nosini urg'u orqali farqlang va ularni qatnashdirib gaplar tuzing.***

Olma, tugma, bo'g'ma, bog'lar, so'zlar, ko'zlar, ko'chamiz, navbatchimiz, oqar, ximik, texnik, yangi, atlas, burun, yara, uycha, qizcha, qizgina.

***14-mashq. O'qing. Fonetik o'zgarishlarga uchragan so'zlarini topib, turini ayting.***

1. Anvar yumshoq o'rindiqli kresloni Alimardonning oldiga surdi. (O'.H.) 2. Shu sababli, biz o'z mustaqilligimizni qanday qiyinchiliklar bilan, va qanday sinov va suronli kurashlar bilan qo'lga kiritganimizni yana bir bor eslashimiz o'rinli, deb o'layman.

(I.A.Karimov.) 3. –Men seni birorta ham kema yeta olmaydigan olis manzillarga olib ketishim mumkin,-dedi ilon. (A.S.Ekzyuperi.) 4. Ko‘cha eshik g‘iyqillab ochilib yopilganidan keyin, Alimardon o‘zini yostiqqa tashladi. (O‘.H.) 5. Qishloq jimb qolgan, paxsa devorlar zax bosib ketgan, hali ko‘milmagan toklar egri-bugri qizg‘ish gavdasini yashirolmay, iymanganday osilib yotardi. (O‘.H.) 6. O‘tgan kuni boshliq Toshkentga ketar ekan, G‘iyosovni chaqirib: “Abbosovning jiyani keladi. O‘zi, yaxshi bolamas”,- dedi... (Sh. X.) 7. Nega Nazarov ishga qiziqib ketib, bironta aspiranturaga kirishni ham o‘ylamayapti? (Sh. X.) 8. Nazarov dardiga doktorlar shifo topishi mushkul ekanini anglagach, Bekat qayerdasan, deb yo‘lga chiqdi. (Sh. X.)

***15-mashq. O‘qing. Assimilyatsiya, dissimilyatsiya va metatezga uchragan so‘zlarni toping.***

1. – Bo, zaril keptimi!-Lobar labini burdi.- Ishim boshimdan oshib yotibdi. (H.G’.) 2. Menga qara, Hojiakbarri o‘g‘lisan-a, ertaga bir do‘ppi o‘rik beraman, mana shu xatti o‘qib ber. (S.A.) 3. O‘nta qo‘yni qishdan omon chiqarsa, bitta qo‘zi ustama mukofot oladi. (Sh. X.) 4. Amirzodamning so‘zлari qulingizga sari toj bo‘lsin! Ertagayoq novvoylarga un berib, ochlarga non yoptirib tarqatishni men o‘z zimmamga olurman! (P.Q.) 5. Tankka qarshi to‘plar, tanklarni yaqin, go‘yo mana-mana sapchish bilan bosib, yanchib keta oladigan masofaga keltirib, omonsiz o‘tga tutardilar. (O.) 6. Elmurod... turli noz-u ne’matlardan yeyotgan sallalilarga telmurdi. (P.T.) 7. - Sayr qilsa arziydigan tun,-dedi Ketrin.- Bevosh kecha, nimasini aytasiz. (E.Xeminguey.) 8. Boshim aynaldi. U yo‘gini eslolmayman. (H.G’.) 9. Gulsinbibi qizi Gulnorni po‘rasiga o‘tqizdi, mahsini yeshtirdi. (O.) 10. Aytmoqchi, kechka yaqin yana kirib o‘tarsiz. (J.Abd.)

***16-mashq. O‘qing. Ushbu gaplarda qanday grafik vositalar qatnashganini aytинг.***

1. Mayli endi, azizim besh-olti yil emas, besh -olti, kun deyapti-ku? Kep qolar erta-indin. (O.Y.) 2. Qani bir nay bo‘lsa, Yo‘lchi ham chalsa-da, butun ko‘ngil qayg‘ularini, oila o‘chog‘idan ayrilgan g‘arib, tanho ruhning to‘lqinlarini kechaning sukut to‘la og‘ushiga qo‘ysa... 3. – Shunaqami? U kishi ham diplom yoqladilarmi? – dedi Otaqo‘zi kesatib. 4. Ona yerim – oltin tuprog‘im. 5. –Ie, Hoji aka, sizga dori berish esimdan chiqibdi-ku, yuring! – dedi va Hojini yetaklab chiqib ketdi. (A.Q.) 6. Kampirlar bir-biriga

qarashdi va hamma birdan: - Nega, nega bo‘lmas ekan!- dedi. - Bo‘lsa nega indamaysizlar? Qani, To‘xta xola, gapiring! (A.Q.)

**17-mashq.** *Orfoepik me'yorga mos holda berilgan so'zlarni o'qing. Har bir so'zning orfografik shaklini yozing, talaffuzi va yozilishidagi farqini izohlang.*

Bangkir, botingka, ko‘ngilchang, mungqaymoq, to‘ngka, esangkiramoq, sho‘xchang, danggasa, boxcha, denggiz, ko‘langka, qizilo‘nggach, shtanga, shingga, janggavor, banggi, quloxchin, qizixchilik, oxshom, zixna, to‘xson, jinggalak, soxchi, go‘shangga, vaxt, vaxtincha, o‘xtalmoq.

**18-mashq.** *Avval sirga'luvchi, so'ngra qorishiq j undoshini ifodalovchi harf ishtirot etgan so'zlarni ajratib, ularni ikki ustun shaklida yozing.*

Jasur, gjida, jamoat, jabra, jabr, jirafa, daraja, jumla, jadval, jandarm, abajur, anjir, journalist, zotiljam, ijozat, ijobiy, passajir, mavj, majlios, morj, projector, reja, hajv, shajara, falaj, injener, falaj, javob, jo‘yak, jurnalxon, Jeneva, erjim, tajriba, iskanja, ajdar, mujda.

Sirgaluvchi j	Qorishiq j

**19-mashq.** *Quyidagi so'zlarni talaffuzda i ortishi yoki ortmasligiga qarab ikki ustunga ajrating.*

Asr, mehr, po‘st, bahs, ilm, kort, urf-odat, hazm, sabr, ufq, neft, mashq, jahd, ganch, dafn, zehn, shavq, zavq, husn, fasl, vahm, qirq, burch, qunt, ont, rasm, elektr, silindr, barg, zulf, kasb, aql.

i ortadi	i ortmaydi

**20-mashq.** *O‘qing. So'zlarni qaysi orfografik tamoyilga asoslanib yozilganini izohlang.*

1. - Shu sababli, biz o‘z mustaqilligimizni qanday qiyinchiliklar bilan, va qanday sinov va suronli kurashlar bilan qo‘lga kiritganimizni yana bir bor eslashimiz o‘rinli, - deb o‘ylayman. (I.A.Karimov.) 2. Ochiq derazadari tip-tiniq osmonning bir chekkasi ko‘rinib turardi. (O‘.H.) 3. Berendik tog‘a pulni ayamasdan o‘zini hasharotlar kolleksiyasini straxovaniya ham qildirib qo‘yar edi. (J.Vern.) 4. Biz “Adolat-qonun ustuvorligida” degan hayotiy tamoyilga qat’iy amal qilib yahashimiz zarur. (I.A.Karimov.) 5. - Ikkalamiz shu yerlarda

sigir boqardik, - u birdan kulib yubordi, - Alimardon o'shanda ham shayton edi... (O'.H.) 6. Ichkari qorong'iroq bo'lgani uchun Alimardonning yuzini aniq ko'rolmasa ham, uning karavot yonida tik turgancha rubob chalayotganini ko'rdi. (O'.H.) 7. Oyoqlari tagida dumaloq bo'lib ochilib turgan fok yelkani, tepasida esa fokmarsel yelkani shamolday yoyilib yotar edi. (J. Vern.)

***21-mashq. O'qing. Fonetik va morfologik tamoyil asosida yozilgan so'zlarni toping va izohlang.***

1. Bundan keyin yolg'on gapiradigan bo'lsang, bilib qo'y, men oyingga o'xshab og'rimaydigan qilib urmayman-a!.. (A.Q.) 2. Kechalari osmonga boqasan-u men yashaydigan, mening kulgim yangrayotgan yulduzlarning barchasi jilmayib kulayotganini ko'rasan. (A.S.Ekzyuperi.) 3. Umuman olganda, milliy valyuta davlat mustaqilligining asosiy belgisi hisoblanadi. (I.Karimov.) 4. Hamroyev Hamdamning qulog'idan cho'zib, o'ziga qaratdi. (A.Q.) 5. Shunday bo'lgandan keyin majlisga jiddiy tayyorgarlik ko'rib borilmasa bo'lmaydi. (A.Q.) 6. Mana bunday qilib: qog'ozga qancha yulduzim borligini yozib chiqaman-da, keyin shu qog'ozni tortmaga solib qulflab qo'yaman. (A.S.Ekzyuperi.) 7. Dadam ishdan kech keldi. (A.Q.)

***22-mashq. Nuqtalar o'rniga h va x harflaridan mosini qo'yib yozing.***

...ullas, osh...ona, ...ayolparast, ...indiston, a...loq, ...ulosa, ...ukm, ...ushyor, sa...na, ...ozirjavob, e...timol, ...ol-a...vol, ...atti...arakat, mu...lis, ...alqparvar, ...abar, podsho..., ma...sulot, ...ech qachon, ...uquq, ...ovuz, ...o'roz, ...asad, ba...il, sa...iy, go...-go..., ...okkey, ...osil, ...alos, ...olos.

***23-mashq. Qismlari vertikal chiziqlar bilan ajratib berilgan so'zlarni imlo qoidasiga muvofiq (qo'shib, ajratib yoki chiziqcha bilan) yozing.***

Oy/bolta, tosh/baqa, nim/ pushti, orzu/umid, dov/daraxat, afsus/nadomat, oyoq/osti, bo'lar/bo'lmas, bir/zumda, bir/tomonlama, boy/o'g'li, atir/gul, azob/uqubat, ayiq/tovon, amaliy/nazariy, umum/ta'lim, dam/badam, beshik/tervatar, arz/dod.

***24-mashq. Quyidagi so'zlarni jadavalga joylashtiring va imlosiga e'tibor bering.***

Bilak//uzuk, tosh//oyna, uy//uyiga, baland//parvoz, ko'z//oynak, sotib//olmoq, alla//qachon, xom//semiz, don//dun, besh//kokil, shirin//

so‘z, ich//ichidan, shu//yerga, jigar//rang, sotib//oldi, kuppa//kunduzi, shaharlar//aro, umum//davlat, o‘rin//bosar, ish//yoqmas, ayta//oladi, g‘ayrat//qilmoq, ko‘chama//ko‘cha, Yakka//saroy, Olti//ariq, radio//markaz, Sot//voldi, yangidan//yangi, osma//ko‘prik, to‘q//qizil, bir//muncha, bira//to‘la, gul//beor, dardi//sar, qay//kuni.

<b>Qo‘shib yoziladigan so‘zlar</b>	<b>Ajratib yoziladigan so‘zlar</b>	<b>Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar</b>

*25-mashq. Quyida berilgan so‘zlarning qaysilarini to‘g‘ri bo‘g‘inga ko‘chirilgan. Ostiga chizing.*

Den-giz, Sam-DU, ta-a-lluq-li, ko‘n-gil, ma-’lumot, ton-ggi, tran-sport, kon-gress, kel-ingiz, tro-lley-bus, in-gliz, BM-T, mu-to-la-a, ta-a-jjub, a-ba-diy, sa’-natkor, monog-rafiya, dia-gramma.

## LEKSIKOLOGIYA

**1-mashq.** *Quyida berilgan gaplardagi so‘zlarni lug‘aviy va grammatik ma’nosiga ko‘ra ta’riflang.*

1.–Bir safar men bir kunda qirq uch marta quyosh botishini tomosha qilganman! (A.S.Ekzyuperi.) 2. Demokratiya ustun bo‘lgan jamiyatda konstruktiv sog‘lom oppozitsiyaning roli juda katta bo‘ladi. (I.A.Karimov.) 3. –Nonushta vaqtim bo‘lib qoldimi deyman,-dedi u saldan keyin.- Baraka topkur, menga yordam qilarsiz-a? (A.S.Ekzyuperi.) 4. Shu kuni ertalab Botirov Salimovning kelib qolishi mumkinligidan darak berib ketgan edi. (J. Abd.) 5. “Sayr qilsa arziydigan tun, - dedi Ketrin. – Bevosh kecha, nimasini aytasiz”. (E. Xeminguey.) 6. Axir, turmush ko‘lmak suv emas, oqib turgan bir daryo-ku! (O.Y.) 7. Yuzim chaydim chiroyingga, oyingga... (Qo‘schiqdan.) 8. Yaramas, fosiq odamlar bilan suhbatdosh bo‘lish ilonni asrashga o‘xshaydi. Ilon har qancha asralsa ham, zahari va ziyoni kamaymaydi, balki ko‘payadi. (“Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur”.)

**2-mashq.** *Quyidagilar gaplardagi ko‘chma ma’nodagi so‘zlarni aniqlang. Ularning o‘z ma’nosini qatnashadirib gaplar tuzing.*

1. Rangi biroz siniqqan, ammo ko‘rkam chehrasida qat’iyat balqib turgan yigit ko‘zlarini chirt yumib uxlab yotardi. (O‘.H.) 2. Anvar uning ko‘zlaridan o‘ziga qadrdon bo‘lib qolgan iliq mehrni sezdi-yu quvonib ketdi. (O‘.H.) 3. – Shoир bo‘lolmadingiz! – Muqaddam kulgi to‘la ovozda uning gapini kesdi. Keyin yupatdi: – Mayli, jurnalist bo‘ldingiz-ku! (O‘.H.) 4. Muqaddam ishga kelgan birinchi kuniyoq bu ayol qishloqda “Huri do‘xtir” deb tanilib ketganini, odamlar uni qattiq hurmat qilishini eshitgandi. (O‘.H.) 5. U yengil-yengil qadamlar bilan hovli tomonga yurib ketdi. (O‘.H.) 6. Alimardon hozir uning yuragiga bigiz sanchishidan zavqlanar, ich-ichidan toshib kelgan kulgisini arang bosib turardi. (O‘.H.) 7. –Xo‘s, ishlar qalay endi, o‘rtoq direktor? Paxtaning mazasi yo‘q-ku? (Sh. X.) 8. Nazarov taxir, chuchmal suyuqlikni ichib yubordi – hayhot! – yarim soat orasida ko‘zi charaqlab ochilib ketgandek bo‘ldi! (Sh. X.) 9. – O‘zlaringga ma’lumki,— tabassum bilan boshladi partkom sekretari,— o‘tirishda har xil mavzuda gap ochiladi. (Sh. X.) 10. O‘ktam ularni ko‘rib o‘rnidan turgan edi, o‘zları qaraguncha chorpoya qoshiga suyanib turaverdi. (Sh. X.)

**3- mashq. O‘qing. Metafora va metonimiya yo‘li bilan ma’nosi ko‘chgan so‘zlarni aniqlang. Bu so‘zlarning tagiga chizing va ma’no ko‘chish xususiyatini izohlang.**

1. ... Ikki ko‘zi har nav mollar bilan to‘la xurjunni.elkaga tashlab, ...inqillab kirdi. (O.) 2. Charchamagan bo‘lsangiz «Nautilus»ning quyruq tomoniga yuring. (J. Vern.) 3. Darhaqiqat, suv osti kemasining tumshuq qismini ko‘rib bo‘lgan edim. Kemaning o‘rtasidan tumshug‘igacha joylashgan xonalar o‘z tartibi bilan quyidagicha edi... (J. Vern.) 4. Bulbullarning dudog‘idan uchgan navoni Qo‘shiqlarim qanotida olib keltirdim. (E. V.) 5. Tog‘larning etagidan uchib maysaga yetar. (M.) 6. Butun qishloq bizni so‘zlaydi, To‘yimizni doim ko‘zlaydi. (H. G‘.) 7. Dod deyman! Mahallani boshimga ko‘taraman. (H. G‘.) 8. Bir «Opa-doktor» degan Yoqib qolgandi xalqqa; Yarim Toshkent tanirdi. (M.) 9. Qosh qoraygach, barcha yig‘iladi: Maktab, ferma, hamma xonadon... (M.) 10. Zal gurillab kulib yubordi. (A. Q.) 8. Ne kerak zaminni titratmas surur, Ko‘kni zir titratmas ohni netamiz. Ko‘p ham davronnishin bo‘laverma, yur, Hazrat navoiyga ketamiz. (M.Abdulhakim.)

**4-mashq. Gaplarni o‘qib, ko‘chma ma’noli so‘zlarni aniqlang. Sinekdoxa yo‘li bilan ma’nosi ko‘chgan so‘zli gaplarni ko‘chiring; ma’nosi ko‘chgan so‘zning tagiga chizib, uning metonimiyadan farqini tushuntiring.**

1. Quvnoq tongning oltin bo‘sag‘asida Tongni kutar quvnoq mingming ko‘z. (M.) 2. – Qanaqa tashvishni aytyapsiz, oqsoqol? (H. N.) 3. Egizakni ko‘p tug‘ar qo‘ylar, Ko‘payadi suruvda tuyeq. (M.) 4. Hoshim zo‘r, Ergash polvon va boshqa qing‘ir oyoqlarning ishlari Haydarbekka ayon. (N. S.) 5. – ... Qulingizdan qoladigan yolg‘iz tirnoq bu. Ishqilib mendan keyin yetimligi bilinmasin! (Y. Sulaymon.) 6. Qiyig‘ing uchida sen ko‘tarib kelgan to‘rtta olma yeyman deb turgan sakkiz og‘izga nima bo‘ladi. (H.G‘.) 7. Eshitgan quloq nima deydi? (H. G‘.) 8. Uqubatli kunlarni Endi ko‘rmasin boshlar. (M.) 9. Allo, hozir Toshkent bilan gaplashasiz, – dedi telefonistka. (Y.Sh.) 10. Yo‘li menga besh qo‘ldek ravshan bo‘ldi. (Y.Sh.)

**5- mashq. O‘qing. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarni toping. So‘z ma’nosi qaysi yo‘l bilan ko‘chganligini izohlang.**

1. Surxonboy zal etagida tik turib bolalarini uzundan-uzoq duo qildi. (I. R.) 2. Oyoqda og‘ir etik Asfaltda taraqlardi, Soldatlar etigidek Tumshug‘i yaraqlardi. (M.) 3. Bir oshnam «she’r» o‘qib,

chapak chalmasa, zalga o‘shqiribdi – «talant» emish u... (M.) 4. Sen o‘zing go‘zalsan, ey O‘zbekiston, Bog‘imiz husniga jahon boqmoqda. (M.) 5. Igna zahrin mendan so‘ramang, Tob bergenman ne zahmatlarga. O‘ttizga kirsam ham cho‘chib turaman, Ko‘zim tushsa oq xalatlarga. (E. V.) 6. «Akamdan bitta-yu bitta shu tirnoq qoldi», – dedi u. (Y. Sulaymon.) 7. Modomiki maslahatni mendan emas, mahalla qora ko‘zlaridan so‘ramoqchi ekansiz, so‘rang, qani bular nima der ekanlar. (N. S.) 8. Oyga uchayotgan kosmonavt agar so‘rasa ne kitob olishni, u dam – Navoiy-yu Pushkin, G‘afuru Tagor Va olib uch derdim Tixonovni ham. (M.) 9. Qizning mehrini, iltijosini sezgan saman ot buloq boshida bo‘yin egib turib berdi. (H.G‘.) 10. Men so‘ngsiz bir azob, muhtasham bir dard, Qo‘rg‘oshindek og‘ir xayolga o‘g‘il. O‘ylayman.. qorachiqla poyonsiz nafrat, Kipriklarga mehr qalqadi, mo‘g‘ul. (M.Abdulhakim.)

#### ***6-mashq. Quyidagi gaplar orasidan omonim bo‘lgan so‘zlarni toping.***

1. Tushga qolmay yukimiz ot aravaga otildi. Ahmad Mirzo bo‘sh kelmay, uning yo‘lini to‘sdi:-Tush pastga (Sh.X.) 2.Yolg‘onchining muruvvati bo‘lmaydi. U har insonga zahar sochadi. (M.Kamol.) 3. Muqaddam uning qo‘llari chakkasidagi sochlari tekkanini sezib, cho‘g‘ tekkanday seskandi. (O‘.H.) 4.Yuziga salqin shabada urildi, orom oldi.(T.Mal.) 5. – Bunday qahramon yuz yilda bir marta tug‘iladi. (M.Osim) 6. Ana, ko‘chada tramvay, trolleybuslar bor. Bor, toshingni ter! (Sh.X.) 7.Gul bag‘rini nasim tildi- to‘kildi. (U.Xayyom.) 8. Muhabbatli, mehrli, go‘zal, janona tilim, Asl durdona tilim. (B.Yarash.) 9.Rahmi kelib bulutning Yig‘lab to‘kar yoshini (E.V.) 10. Tarixiy jarayonlarni yoshlarmiz, butun mamlakat ahli yangi ong hissi bilan qabul qildi. (K.Normatov.) 11. “Alif”laring o‘q qilib ot ular ko‘ksiga. (Sh.Qurbon.) 12. Shu yerda turib o‘q otaman. (S.A.) 13. Do‘ppayan qorni lip-lip ucharmish. To‘rt –besh bo‘yra eni qorni kurab yerni ochardi.(S.A.) 14.Keyin telefon trubkasini olib bog‘ni ulashni buyurdi. (S.A.) 15.Yaxshidan bog‘ qolar , yomondan dog‘. (Maqol.) 16.Amudaryo suvlaringdan o‘tolmayman. (A.Sobirov.) 17. Dov-daraxt, o‘t-o‘lan xuddi yer kabi oltin tus oladi.(O‘.H.)

#### ***7-mashq. Quyidagi gaplar orasidan sinonim so‘zlarni topib, sinonimik qatorni hosil qiling.***

1. Bu ulkan lashkarning xatti-harakatlari go‘yo bulutdagidek aniq bir qoidaga bo‘ysunardi. (A.S.Ekzyuperi.) 2. Shimoliy qutbdagi

yagona fonusni yoqishi lozim bo‘lgan charog‘bon bilan uning Janubiy qutbdagi hamkasbiga hammadan ham mazza edi. (A.S.Ekzyuperi.) 3. U fonusini yoqqan paytda go‘yo yana bir yulduz chaqnagandek, yoki yana bir gul ochilgandek bo‘ladi. (A.S.Ekzyuperi.) 4. Bir marhamat qiling, quyosh botsin, deb farmon bering. (A.S.Ekzyuperi.) 5. Kechalari osmonga boqasan-u men yashaydigan, mening kulgim yangrayotgan yulduzlarning barchasi jilmayib kulayotganini ko‘rasan. (A.S.Ekzyuperi.) 6. Agar sen meni qo‘lga o‘rgatsang, qorong‘i turmushimga nur kirardi. (A.S.Ekzyuperi.) 7. Bir lahzadan keyin ko‘z o‘ngidagi narsalar tag‘in siyrak tumanlik ichida yo‘qoldi-yu , yana alahlay boshladi. (O‘.H.)

### ***8-mashq. Gaplar tarkibidagi antonim so‘zlarni aniqlang.***

1. Xullas, g‘am bog‘ganda yig‘lamagandan yig‘lab o‘lgan yaxshi emish!... (O.Y.) 2. Yana bilginki, tashqi dushmanidan ham ko‘ra ko‘proq ularning aravasiga minganlar yomon. (O.Muxtor.) 3. Demak, bu tun o‘ylanadi, reja tuzadi. (T.Mal.). 4. Uch kun safarda bo‘ldim. (X.Do‘stmuhammad.) 5. Shu boisdan ham sevishganlar odamlarning nazariga tez tushadilar. (X.Do‘stmuhammad.) 6. Nilufar lablari pirpirab, sekin burildi-da, olisroqda turgan yashil “Volga”ga qarab ketdi. (O.Y). 7. Odamning yaxshi-yomonligi boylik-kambag‘allikka qaramaydi. (O.Muxtor) 8. Shunda, to‘rimda o‘tirmish bir katta ko‘zlarini bet-boshim lo‘q etdi. (T.M.) 9. Qilich ikkinchi piyoladagi choyni ichib ulgurmay eshik ochilib, jussasi kichik, eti ustixoniga yopishgan, qaldirg‘och mo‘ylabi o‘ziga yarashgan odam ko‘rindi. (T. Mal.) 10. Katta adibmi, kichik adibmi, bundan qat’iy nazar xushyor bo‘lishi lozim, deb xulosa chiqargan va matbuotda o‘z fikrini maqolalaridan birida bayon qilgan edi. (B.Nazarov.) 11.– Juda xokisorsiz-da, ustoz. Betayin jiyanni qidirish bir, katta boshingizni kichik qilib... (O. Muxtor.) 12. – Shu gapingga noma‘qulni nonini yebsan! Olib tush pastga! (T. M.) 13. Xiyobonning ikki tomonidan ikki to‘p kishi baland tovushda gapirib, kela boshlashdi. (O. Muxtor.) 14. Qoramtil, keng dala etagida traktor turibdi. (Ch. A.) 15. Ular tor ko‘cha boshidagi kattakon xarsangtosh oldida xayrlashdilar. (O‘.H.) 16. Buning ustiga dala, toza havo, tog‘asi bilan ovga chiqishi mumkin. (O‘ Umarbekov.) 17. Nega desangiz, qipchoq degan iflos barchani ham jonidan to‘ydirdi,-dedi va nosqovog‘ini qoqa-qoqa bitr otimini tilining tegiga tashladi. (A. Qod.)

## **9-mashq. Antonim so‘zlarni juftlang va ular ishtirokida gap tuzing.**

Yaxshi, urush, xafa, avval, yo‘g‘on, kecha, ilgari, ozg‘in, tinchlik, qora, ingichka, keyin, yolg‘onchi, xursand, dushman, yomon, bugun, hozir, qisqa, oz, keng, yer, kun, qari, semiz, rostgo‘y, uzun, ko‘p, tun, yosh, tor, osmon, do‘st, oq.

## **10-mashq. Gaplar tarkibida qo‘llangan paronim so‘zlarni toping va ma’nolarini izohlang.**

1. Mana shu uch buyuk qadriyatni xalqimiz asrlar davomida hamisha e’zozlab kelgan. (I.A.Karimov.) 2. Naql qilishlaricha, bir yigit yov qo‘liga asir tushadi. (Ch.A.) 3. Vertolyot Ola Mo‘nguning oq qorli, ko‘k muzli dovonidan oshib o‘tib, bulutlar ortida ko‘zdan g‘oyib bo‘lgandan keyin ham Akbar yana anchagacha o‘ziga kelolmay, qalt-qalt titrab turdi. (Ch. A.) 4. 1409-yilda Durbek o‘zining “Yusuf va Zulayho” dostonini tugatadi va alohida devon sifatida turkiy xalqlar orasida tarqalib ketadi. (Muxtor Shoxonov) 5. Ot egar-abzali og‘ib, oyoqqa turdi. (Ch. A.) 6. Sizning har bir so‘zingiz biz uchun tilladan afzal. (O.) 7. Ona quyosh dastlab qaldirg‘och qanotiga o‘xshab ko‘rinadi-da, zum o‘tmay tog‘ning yassi cho‘qqisida qip-qizil mis tovoqday tovlanib, vohaga ajib bir zar to‘kadi. (T.M.) 8. – Ana endi, quyoshda mazza qilib, tovlanib yotamiz. (T.M.) 9. Onamiz qalb amri bilan paxtakorlarga yordam bergich onaxon bo‘lib surat tushar bo‘ldi. (T.M.) 10. Buxoro amiri dorga torttirgan ziyo axli orasida Shoakbar Zunnuniy ismli zotning buyuk salohiyat egasi bo‘lgani haqid atarix kitoblarida bir qancha satrgina bor. (T.Mal.) 11. O‘n yildan beri kichik ilmiy xodimlikdan bir enlik ham siljimabdi. (T.Mal.) 12.– Bundan ellik yil burun Jazoirda yashar, davra ko‘rgan, erka, bedard edim. (O.Muxtor.) 13. Zelixon sof ko‘ngilda to‘yona bergen bo‘lsa-da, gaplaridagi ohangda biroz manmanlik, minnat sezilgan edi. (T.Mal.) 14. Oqpodsho qamchi sopini Ibordin soqov peshonasiga nuqilaydi. (T.M.) 15. – Ollohdan qo‘rqinglar, bunday bema’ni urushga bel bog‘lashdan tiyilinglar. (T.Mal.) 16. Loy urish oson, loy olib berish qiyin. (T.M.) 17. Asar bugungi kitobxonni ham hayajonga solishi, hayot va muhabbat degan sehrli narsa haqida o‘ylashga undashiga umid qilaman. (O‘.H.) 18. Undosh tovushlar tizimi tilda konsonantizm deb yuritiladi. (M. Hamrayev) 19. Derazamning ro‘parasida bir tup daraxt yaproqlari oltin tusda sarg‘ayibdi. (X.Do‘stmuhammad)

20.Yana bir payt tanbur chalganimdan keyin, yana og‘zini qulog‘im tubiga keltirib: -Endi bas qilsang ham bo‘ladi,-dedi. (S.Ayniy)

***11-mashq. Quyidagi so‘zlarning paronimlarini topib, paronimik juftlik hosil qiling.***

Sig‘im, sof, undosh, bob, sutxo‘r, sirop, soliq, tanbur, siqim, tub, urush, amr, tong, daho, undash, so‘qmoq, sop, fol, dovon, abzal, sudxo‘r, enlik, tang, suqmoq, daha, urish, solih, devon, afzal, tup, bop, serob, amir, pol, ellik, tambur.

***12- mashq. Gaplarni o‘qing, dialektal so‘zlarni aniqlang, ular qaysi shevaga xos ekanini va adabiy tildagi shaklini ayting.***

1. Ma’lumki, tun bilan kunduz tenglashgan tongda ko‘katlar bulturgi ildizlaridan bosh ko‘tarib chiqadi, daraxtlar pindig‘i bo‘rtadi, tabiat uyg‘onib, yer ko‘pchiydi. 2. Bozordagilar: «Jinoyat amakimdi eshagini ham aytgani aytgan, degani degan», deyishsa, qishloqdagilar: «Jinoyat oqsoqol eshagiga xalacho‘pdi ham birovning tolidan sindirib oladi»,— deyishardi. (S.A.) 3. Sen bilan biz baqlarda yuribmiz, xolos. (S.A.) 4. Huv o‘qishni bilgan axtig‘imdan aylanay, - deb buvisi nabirasining yelkasini qoqib qo‘ydi. (J.Sh.) 5. O‘rikka chiqib, g‘o‘ra uzib yeyishni, ... allaqachon o‘rgangan. (P. T.) 6. Yuraklarim ezilib ketdi, hadeb tushimga kirvotti. (P. T.) 7. To‘satdan oranglardan ola pishak o‘tdimi? (E.Usmonov) 8. Saidahmadxon Eshonxon ko‘k choy suzib uzatgan piyolani oldi. (O.) 9. Shundan keyin tez-tez ko‘rishib turish odatga aylandi... Asosiy pakkamiz bog‘ning etagi. (U.Nazarov) 10. Sekin, sekin, aya, birov eshitib qoladi. (S.A.) 11. – Ie, anovi, polvonning askardan yangi kelgan ulimi? (E.A’zamov) 12. ...Biror joyda birpas choylashib, keyin poezdga chiqsak, qalay? (E.A’zamov) 13. Ammo Nazarov qoyil qolib: «Ofarin! Bamisoli po‘lot toblanishopti!» – dedi. (H. G’.)

***13- mashq. Quyidagi so‘z va atamalar qaysi sohaga oidligini aniqlang. Ularni qatnashtitirb gaplar tuzing va yozing.***

Katta Ayiq, vaqt, absolyut vaqt, negiz, so‘z yasovchi affiks, bo‘luvchi, yopiq chiziq, tenglik ishorasi, logarifm, urg‘u, milliy til, bo‘g‘in, tovush, leksikografiya, kometa, meteor, oy o‘rog‘i, assimilyatsiya, moslik, elliptik nuqta, dukkak, yon ildizlar, vegetativ hujayra, Omega tumanligi, argument, afilliya (bargsizlanish), oqsil, g‘uncha, miqdor, kattalik, noto‘g‘ri kasr, toq son, nomerlash, proekqiya, astronavtika, teleskop minorasi, oy tutilishi, fonema, akustika, meteor nurlanishi, gultoj, novda, vilt, cheksiz yechim,

ehtimoliy xato, sig‘im, grafik usul, punktuatsiya, semasiologiya, o‘zak, kabisa yil, kosmogonik gipoteza, bachki, kurtak, gerbariy, yulduzsimon yadro, turkiy tillar, ko‘chirma gap, kallak, g‘allasimonlar, nektar, moslashuv, harakat nomi, palak, soyadagi barglar, o‘sish nuqtasi, to‘qima, qalamcha.

**14-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Nofaol so‘zlarni topib, ma’nolarini izohlang turini aniqlab ayting.**

1. ...Rang-barang kiyingan otliqlar uning orqasidan yurib borar, tug‘ yoki yalovlar baland ko‘tarilgan edi. (S. B.) 2. ...Yuz minglab yosh dehqonlar kerak edi, biroq yoshlari so‘qa dastasini ushslashni unutgan, ... (S. B.) 3. Qishloqda bir hakim yo‘q, Ko‘pchilnkni dard ezgan. (Q. H.) 4. Mulla Abdishukur, ertaga ojizamizga to‘y keladi, marhamat qiling, durustmi? (O.) Shodlikdan bir zumdayoq Dudoqlar ketdi yonib. (M.) Yorg‘uchiq tortish ham, qo‘rg‘oshin kuydirish ham uning ishi. (M.) 7. Temurning orqasidan... choparlari, mirzalari, tilmochlari va eng keyinda xizmatkorlari kelar edi. (S. B.) 8. Nasriddinbek gilamga sochilgan satranj donalarini bosib, pastga tushdi. (M.) 9. Boychechaklarning xushbo‘y, sezilar-sezilmas hidini nayning yoqimli sasi bilan uchirib keldi. Qilich esa otini olti chaqirimcha bir tusda choptirib borib... darvozaxonaga kirdi. (S. B.) 11. Sizlarning bog‘laringizdagi zardoliga chiqishga chiqib, tusholmay yig‘lab o‘tirganlarimda necha-necha bor tushirib qo‘ygansiz (B.Daminov.) 12. Olimshoh yetti mamlakat hoqonidan yiliga ikki martadan xiroj olar ekan. («Gulpari».)

**15- mashq. Gaplarni o‘qing. Arxaik va tarixiy so‘zlarni aniqlab, ikki ustun shaklida yozing.**

1. Qo‘llarida aso, keksalar, Yuzlarida ziyo, keksalar. (E. V.) 2. Bu maktabxona bo‘lib, mullavachchalar haftiyak yodlashardilar. (P. T.) 3. Besh paysa yemni ayagan kezlariningda, qor kurab, ildiz topib berdim ularga. (I. R.) 4. Tirak bo‘ldi – loy iylab, charx tepdi, yorg‘uchiq tortdi. (M.) 5. Mushtlashish, ur-yiqitni mirshablar ham bosolmadni. (M.) 6. Abduvahob tezgina chipta oldi va yo‘lovchilarga qo‘sildi. (Sh. Toshmatov.) 7. Bo‘lmasa sizning o‘g‘lingizga o‘xshab shayton arava minsinmi?... (H. N.) 8. – Sening ishing kolxozimizning sekretari mulla Muqimning anketa to‘ldirishiga o‘xshaydi. (A. Q.) 9. Kemtik tishday omochga muhtoj dehqon bechora. (Q. H.) 10. Xon o‘rdasining mutavaffo mirzolaridan bittasining madrasada o‘qub yurg‘an o‘g‘li bor edi va

uyida chaqich chaynab o‘lturgan o‘n olti yoshliq qizchasi ham bor edi. (A.Qod.)

**16-mashq.** *Gaplarni o‘qing. Tarixiy so‘zlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, shu so‘zlar tagiga chizing. Arxaik so‘zlarning sinonimlarini toping.*

1. Mirzo Ulug‘bek ilmi riyoziyot va handasa borasida ust-ustiga savollar berdi. (O.Y.) 2. Kichkina-kichkina, shiftiga bosh tekkudek do‘konlarda baqqollar, attorlar, bazzozlar, vopurushlar, poyakilar o‘z mollari bilan savdo qilishadi. (H. Nu’mon, A. Shorahmedov.) 3. Yigitlarni to‘playver, yuzboshi qilib qo‘yaman. (H. Nu’mon, A. Shorahmedav.) 4. Tun yarmidan oqqan, olis qirlar ortidan ko‘tarilgan zaifgina hilol shu’lasida borliq sokin, osuda uyquga cho‘mgan. (O.Yo.) 5. Bugun bu yerga politsmeyster, pristav, qozi, mingboshilar, ellikboshilar kelib, xalqqa va’z-nasihat qilmoqchi. (H. Nu’mon, A. Shorahmedov.) 6. ...Mana paxta orqasida o‘zi yonar chiroqqayam yetishdik. (O.) 7. Niyoz harifining qo‘lini qattiq burab orqasiga qayirdi. (H. Nu’mon, A. Shorahmedov.) 8. Zavod sizga bo‘nak beradi. (H. Nu’mon, A. Shorahmedov.) 9. Kelasi bahorda sherkatning yerini o‘t omoch bilan haydashsa kerak. (H. Nu’mon, A. Shorahmedov.) 10. Bu amirlarga ishonma, o‘g‘lim! Ularni sodiq bo‘lsin desang, qilichingni ilkingda mahkam ushla.(O.Y.)

**17-mashq.** *O‘qing. Umumiste’moldagi hissiy-ta’siri bo‘yoqsiz va bo‘yoq dor so‘zlar so‘zlarni toping. Ularni izohlang.*

1. O‘qishiga xalaqit beradigan nimaiki uchrasa, hammasini keskin rad etib kelyapti. (P.Q.) 2. Sen ilmga o‘zingni butkul bag‘ishlamasang, ilm senga hech nima in’om qilmaydi. (T. Mal.) 3. Donishmandning shohga ehtiyoji yo‘q, ammo shoh donishmandga hamisha muhtojdir. (T. Mal.) 4. Foyda bermas nodonlarga haqiqat shamin yoqish, Budir go‘yo kecha-kunduz zarang toshga mix qoqish. (H. Irfon.) 5. Havo aytarli sovuq emas, biroq kuchsiz izg‘irin badanni junjiktiradi. (T. Mal.) 6. Havo yuzini to‘sgran parda ko‘tarilgach, cho‘lquvarlar o‘rinlaridan turib, paxtazor tomon yurishdi. (S. Karomatov.) 7. Tomchi sel bo‘lmas, dushman el bo‘lmas! (O. Y.) 8. Vahobovning chehrasidagi quvonch o‘rnini ma’yuslik qopladi, ammo qalbida jo‘sh urayotgan umid so‘nmadi. (S. Karomatov.) 9. Zo‘r daryordan kanal, ariq va egatlar orqali g‘o‘zalarga obihayot olib borilgani kabi, tarix daryosidan har bir bo‘lajak eshituvchisining ongiga olovli haqiqat olib bormoqchi edi. (P. Q.) 10. Hayotda shunday

daqiqalar bo‘ladiki, kishi o‘z maqsadini aniq belgilab olishi zaruratga aylanadi. (S. Karomatov.) 11. Tilning go‘zallik qoidasi – mantiq va tabiiylik, boylik manbai xalqchillik. (Asqad Muxtor.) 12. Cho‘lda qish qancha qahrli kelsa, bahor shuncha muloyim bo‘ladi. (S. Karomatov.) 13. Eh, ko‘ksi so‘qirlik ko‘zi so‘qirlikdan qanchalik yomon Shuncha ajoyib mashinalar kashf etgan dono odamlar nega kishining yuragini, fikru e’tiqodini ro‘yi rost ko‘rsatadigan, aniqlab beradigan birorta asbob o‘ylab topolmaydilar (Shuhrat.)

***18-mashq. Quyidagi gaplar ichidan iboralarni topping va ma’nosini izohlab, ular ishtirokida yangi gaplar tuzing.***

1. Shundagina u tark etilgan guliga behad achinib ketdi, dilini g‘ussa chulg‘adi. (A.S.Ekzyuperi.) 2. Devorning shundoqqina tagida, odamni chaqsa, yarim minutda til tortmay o‘ldiradigan bir ilon bo‘ynini gajak qilgancha Kichkina shahzodaga tikilib turardi. (A.S.Ekzyuperi.) 3. “Ha, shuning uchun og‘zi qulog‘ida ekan-da!” (O‘.H.) 4. “Kelganiga ancha bo‘lgan ekan-da...” – Alimardon nima uchun quvonayotganini o‘zi bilmasa ham qizdan ko‘z uzolmay qoldi. (O‘.H.) 5. Alimardon uning har bir harakatini diqqat bilan kuzatar, miyasi g‘uvillab ketgan, chalkash tuyg‘ular ichida to‘lqinlanar edi. (O‘.H.) 6. U favvoradan ko‘z uzmay o‘tirar, chehrasi suv ichida aylanayotgan nurlar aksida goh qizarib, goh ko‘karib ko‘rinardi. (O‘.H.) 7. Muqaddam shiftga tikilgancha yotar, xayoli chuvalashib ketgan, nimani o‘ylayotganini o‘zi bilmasdi. (O‘.H.) 8. Lekin tabiatan ko‘ngli ochiq kishi bo‘lgani uchun Sodiqni ko‘rib, o‘rnidan turdi. (Sh. X.) 9. Barot chol katta choynakda choy keltirdi, stolning u boshiga qo‘yib, qo‘l qovushtirdi. (Sh. X.) 10. Biroq uning ko‘ngli juda yumshoq edi. (J.Vern.) 11. Notanish kishi kapitan ko‘prik hasiga qaytdi va kema panjarasiga tirsaklarini tiragancha tag‘in o‘yga cho‘mdi. (J.Vern.) 12. Negaligini xudo biladi-yu dilimni yana qo‘rg‘oshindek g‘ashlik qopladi. (A.S.Ekzyuperi.).

***19-mashq. Berilgan so‘zlarning ma’nosini qavs ichida ko‘rsatilgan lug‘atlardan foydalangan holda izohlang.***

1. Akkreditiv, bionika, vakansiya, garpun, djaz, jeton, zummer, indeks, kvorum, (“Ruscha-internatsional so‘zlar izohli lug‘ati”).

2. Buqalamun, vobasta, dilovar, yog‘och, ol, jubba, zanbur, luchchak, ma’vo, nigun (“O‘zbek mumtoz adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at”).

3. Mushak, suz, tuyg‘un, chakka, yupqa, o‘ng, qiy, alam, bargak, do‘l (“O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”).

4. Albatta, ... butunlay... gina qilmoq..., kasalmand..., dang‘illama..., yetishmoq..., yordam..., jahl..., zulm... (“O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”).

5. Adresant - ..., barqaror - ..., dali-g‘uli - ..., yovuzlik - ..., zolim - ..., obod - ..., sayoz - ... (“O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”).

## **MORFEMIKA, SO‘Z YASALISHI, MORFOLOGIYA**

**1-mashq.** *Quyidagi gaplar tarkibidagi so‘zlarni asos va ko‘makchi morfemalarga ajrating.*

1. Quyoshning so‘nggi nurlari qadalgan bulut parhalari shamday so‘nib, shamol asta-sekin tina bordi. (J.Vern.)
2. Alimardon parparonday yelib ketgan mashinaning orqasidan qarab tishlarini g‘ijiriatib qoldi. (O‘.H.)
3. Baholarni boshqarib turmasdan O‘zbekiston sharoitida bozor munosabatlariga o‘tish qiyin. (I.A.Karimov.)
4. Ular tepani kamardek o‘rab o‘tgan so‘qmoqlarni zinadek bosib pastga tushishdi. (Sh. X.)
5. Quduqdan sal narida ko‘xna tosh qo‘rg‘onning vayronalari saqlanib qolgan edi. (A.S.Ekzyuperi.)
6. Anvar yumshoq o‘rindiqli kresloni Alimardonning oldiga surdi. (O‘.H.)
7. Bekat kasalxonasining bosh vrachi Qamariddin Shamsiddinovning otasi mashhur tabib o‘tgan. (Sh. X.)
8. Negaligini xudo biladiyu dilimni yana qo‘rg‘oshindek g‘ashlik qopladi. (A.S.Ekzyuperi.)
9. Kuzatuv postidan yangragan qichqiriqni eshitgan yaxtagilar kema bortiga tashlanib, g‘arb tomonga tikila boshladilar. (J.Vern.)
10. Orqada o‘tirgan Munira derazadan tevarakka tikilib, allanarsalarni o‘ylab borar edi. (Sh. X.)

**2-mashq.** *Tarkibida so‘z yasovchi qo‘srimchalar mavjud bo‘lgan so‘zlarni toping.*

1. Kapitan Gul havo o‘zgarishini kutishga majbur edi. (J.Vern.)
2. Anhor yuzi sekin-sekin qoraya boshladi. Qayerdadir chigirtka chirilladi. (O‘.H.)
3. Vovvillayotgan ovoz eshitilyapti, shekilli. (J.Vern.)
4. Albatta, bu aytilgan gaplar yangilik emas. (I.A.Karimov.)
5. U uzun yo‘lakning oxiriga yetib, o‘ng qo‘ldagi bir eshikni ochdi. (Sh. X.)
6. Muqarrar falokat tuyg‘usi tag‘in vujud-vujudimni muzlatib, karaxt qilib tashladi. (A.S.Ekzyuperi.)
7. Muqaddam sarg‘ish jingalak sochli, serharakat, xushchaqchaq yigitni esladi. (O‘.H.)
8. Bularning barchasi oddiy bir haqiqatni yana bir bor tasdiqlaydi. (I.A.Karimov.)
9. Munira ikkilanmasdan qaror qildi: u ketamiz desa, o‘zi qoladi. (Sh. X.)
10. Bugungi kunda O‘zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an‘analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat’iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz. (Sh.M.Mirziyoyev.)

### **3-mashq. Tarkibida so‘z yasovchi qo‘srimchasi mavjud bo‘lgan so‘zlarni ajrating.**

Bu quruqlik yoki biror orol bilan tutashgan burumasmikan? (J.Vern) 2. U kuyovlardek yasanib, yangi kostum-shim kiyibdi. Ko‘kish yaltiroq galstuk taqib olibdi. (O‘.H.) 3. G’allaning xarid narxi oshganligi g‘allakorlarga taxminan 3 milliard sof foyda keltiradi. (I.A.Karimov.) 4. Xona past, bozorga ochiladigan derazasining bir ko‘ziga qog‘oz yopishtirilgan, xavosi bo‘g‘iq, achigan non, paypoq hidi kelar, lekin sim karavotlarga yap-yangi gul dor ko‘rpalar solib qo‘yilgan edi. (Sh. X.) 5. Oxirgi kuni ertalab u odatdagidan ko‘ra boshqacharoq g‘ayrat bilan sayyorasini tozalashga kirishdi. (A.S.Ekzyuperi.) 6. Anvar oyoqlarining uchigacha muzlab ketganini his qilib, Alimardonning beparvo ko‘zlaridan ma’no qidirib qoldi. (O‘.H.) 7. Bu fozil odam bo‘lib, matematika fanlariga moyilligi zo‘r edi. (J.Vern) 8. – Shamshiddinov, bir soatga yaqin shu to‘g‘rida gaplashdik, xayolingiz mijozlaringizdamidi? (Sh. X.) 9. Negaligini xudo biladiyu dilimni yana qo‘rg‘oshindek g‘ashlik qopladi. (A.S.Ekzyuperi.) 10. Anvar yumshoq o‘rindiqli kresloni Alimardonning oldiga surdi. (O‘.H.) 11. Inson huquqlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan ochiq muloqotimiz faollashib bormoqda. (Sh.M.Mirziyoyev.)

### **4-mashq. So‘z yasovchi qo‘srimchalariga ko‘ra so‘zlarni guruuhlarga ajrating.**

Beodob, baxtli, paxtakor, noinsof, bevafo, guldon, gulla, farzandmand, nodavlat, unumdor, serfarzand, mardlarcha, terim, saylghoh, baodob, gulchi, ustachilik, sersuv, o‘yna, ixtirochi, issiq, serdavlat, qatnov, bema’ni, xalqaro, orombaxsh, bee’tibor, bemehr.

Qo‘srimcha + so‘z	So‘z + qo‘srimcha

### **5-mashq. Affiksal morfemalarning turlari: so‘z yasovchi, lug‘aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi affikslarni jadvalga joylashtiring.**

-la, ib, -lar, -da, -a, -ni, -ma, -gach, -zor, -dagi, -sa, -ay, -lik, -imtir, -ta, -gacha, -miz, -xo‘r, -ng, -nchi, -tir, -il, -ik, -dan, -roq, -gani, -dosh, -chi, -lab.

so‘z yasovchi affiks	lug‘aviy yasovchi affiks	shakl	sintaktik yasovchi affiks	shakl

**6-mashq. Affiksal morfemalarning tuzilishiga ko‘ra turlari:  
sodda affikslar va murakkab affikslarni aniqlang.**

Farmonga asosan Xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tuzilib, uning faoliyatini samarali tashkil etish uchun hozircha 300 milliard so‘m mablag‘ ajratilmoqda.

Ana shu mablag‘ hisobidan xotin-qizlar bandligini ta’minalash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandlikka keng jalb etishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu boradagi sa’y-harakatlar faol tadbirkorlikni rivojlantirish, ayollarning oiladan, farzand tarbiyasidan ajralmagan holda kasanachilik, tomorqachilik bilan shug‘ullanishi uchun zarur sharoit yaratadi.

Qabul qilingan Farmonga muvofiq, kam ta’minalangan, shaxsiy uy-joyga muhtoj oilalarga uy-joy olish uchun ajratiladigan kreditlarning boshlang‘ich badallarini to‘lab berishda ham fond mablag‘laridan foydalanish belgilangan. (Sh.M.Mirziyoyev.)

**7-mashq. O‘qing, So‘zlarning sintetik, analitik, just va takroriy,  
aralash hamda nol ko‘rsatkichli shakllarini aniqlang. Ularni  
alohida-alohida ko‘chiring.**

I. Egnida qizg‘ish, nim qora aralash matodan tikilgan gimnastyorka, galife shim. Oyog‘ida chiroyli qora xrom etik. Boshida qorako‘l telpak. Belida kamar, kamarda chiroyli jajji xanjar, to‘pponcha, qora qosh, xushmo‘ylov, xushqomat, behad ko‘rkam Haydarbek qurolli ikki yigit o‘rtasida, qo‘li ko‘ksida, bosh egib, o‘ng va so‘lida zanjirband odamlar orasiga kirib borardi. Uning jozibador chehrasidagi alomat shodlikmi, qayg‘umi, payqab bo‘lmas edi.

II. Bizni Orzi amaki boshlab boryapti. Uning so‘ziga qaraganda, qishloqning kun chiqish tarafida bir oshnasi bor emish. Mehmondo‘slikda unga yetadigani yo‘qmish. Doim eshigi, dasturxonni ochiqmish. Yuz-ko‘zi kulib turadigan, ko‘ngli ochiq odammish. Uning suhbatida bo‘lgan kishi zerikmasmish, bama’ni gaplaridan kishining miyasi to‘larmish. Tunashga joy bemalol, ot-eshaklarga ham yemish mo‘l emish. Xayriyat, eson-omon qo‘nadigan yerga borib yetdik. (N. Safarov.)

**8-mashq. Gaplardagi atoqli otlarni aniqlab, guruhlarga bo‘lib yozing.**

**N a m u n a : Xuroson – joy nomi.**

1. Xurosonda bir davr yaratmoq lozimki, o‘zga xalqlar ibrat ola bilsinlar. (O.) 2. “Toshkent” mehmonxonasi, Navoiy teatri..., yigirma qavatli bino – hammasi xuddi kaftda turgandek aniq ko‘rinadi. (P.Q.) 3. Ikki yildirki, Mosh ular xonadonining haqiqiy a’zosi bo‘lib qolgandi. (S.A.) 4. Hali u stolni yasatib ulgurmagan ham ediki, cho‘pon yigit “Moskvich”da to‘rxalta to‘la baliq olib keldi.(S.A.) 5. Kasalxona hovlisiga kirishlari bilan mashina to‘xtab, Chuvrindi tushib qoldi. (T.Mal.) 6. Juldur- juldur Ibodinsoqov chalpak bo‘lib uchadi. (T.M.) 7. -Bo‘riqul, chang‘aroqni yop-e, oftob tushib qoldi! (T.M.) 8. Suv yo‘q , Sharof Rashidovich, suv yo‘q! –dedi. (T.M.) 9. Abdulla chamadonini yerga qo‘yib, rovonga ko‘tarildi. ( O‘.U.) 10. Mashhur Yusufjon qiziqning o‘z shogirdi Oxunjon qiziqqa yutkazgan joyi ham shu Mingbuloq bo‘lgan. ( O‘.U.)

**9-mashq. Matnni o‘qing. Otlarni topib, ma’no jihatidan turini aytинг.**

1. Ketma-ket uzatilgan chelak va savtlarni keksalar yerga ag‘dardilar, xirmon borgan sari ko‘paydi. (O.) 2. Bir zumda mashinani o‘rmonga olib kirdik-da, pastqam joyga yashirdik. Uning izini ham tekislab tashladik. (T.Rustamov.) 3. Gullar, to‘s mang yo‘limni, yellar, tutmang qo‘limni, Namanganlik nozanin yo‘limda intizormish. (H.S.) 4. Sen kuylading va birin-ketin Borlig‘imni chulg‘adi xayol. (H.S.) 5. Xira qilar ko‘zlarining yashini yulduzlarni, Go‘yo quyosh yaqinlashib, qamashtirar ko‘zlarni. (Sh.Rustaveli.) 6. Bobomiz Oqpodsho tarafga ko‘z qirida qaraydi. (T.M.) 7.General Skobelev kun botarda tashrif etadi(T.M) 8.O‘zbekistonda televizor joriy bo‘ldi. (T.M.) 9.Mashhur Yusufjon qiziqning o‘z shogirdi Oxunjon qiziqqa yutkazgan joyi ham shu Mingbuloq bo‘lgan.(O‘.U.) 10.Ammo ikki yildan beri, otasi kasalga chalinib yotib qolganidan beri kelmagan buvisini juda sog‘ingan edi. ( O‘.U.)

**10-mashq. Turdosh otlarni yakka va jamlovchi otlarga ajratib yozing.**

1. - Davlat uchun qo‘shinning ne darajada kerakli ekanini biz ham bilurmiz, - majlisga qarab gapirdi Navoiy. (O.) 2. Sultonmurod o‘zini chetga olishga tirishsa ham, xalq to‘lqini uni surib ketdi.(O.) 3. Tongda qirga ketgan podalarning kechda ma‘rashib, bolalarini

sog‘inib yelib-yugurib qaytishlari qanday go‘zal! (Sh.X.) 4. Dastani shu yerga tushiraman-u, nari yoqqa borib aravani yana Qoravoyga beraman. (S.A.) 5. Shu asnoda dala yo‘lidan chang va suron bilan paxta karvoni chiqib, katta yo‘lga qo‘shildi.(O.) 6. Hamma ham oshna bo‘lsa, butun kollektiv bir og‘ayni bo‘lsa, qandoq yaxshi. (S.A.) 7. Qancha qishloqlar yaralib, qancha-qanchasi yemirildi, qancha elatlar keldi, ketdi, qanchasi bir umrga turg‘un bo‘lib qoldi. (J.Abd.) 8. Namizi asrga yaqin olomonning g‘azabi asta-asta sovuna boshlab, bir qismi tarqaldi. (O.) 9. Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, butun el qoshida manzur va mo‘tabar bo‘lsin. (O.) 10. Nimasini aytasiz, tormor keltirilgan korpus qoldiqlaridan yangi armiya tuzish qiyin bo‘ladi. (L.Jarikov)

### ***11-mashq. Berilgan gaplardan sifatning ma’no turlarini aniqlang.***

1. Odam to‘g‘rilik va mo‘minlik yo‘li bilangma katta va yop-yorug‘ yo‘lga chiqib oladi.(S.A.) 2. O‘sha mayib turna cholning qo‘lida shifo topib, yana o‘z karvoniga qo‘ shilganini bilarmikin (S.A.) 3. Mo‘minning chog‘roqqina hovlisi. Bu yerda hamma narsa uy egasining kamtar hayotiga mos, Oldingi qatorda peshayvon, eski ko‘rpachalar solingan. (E.V.) 4. Domla shunaqa ishonuvchan, sodda, laqillatish oson odam edi. (S.A.) 5. Tabiat qo‘pol tushmasa, bu go‘zal qiz och ra’no gulning tusida yoki oq-sariq tusda yaratilgan edi. (A.Qod.) 6. -Nafasingni sovuq qilma!Qora bo‘lsa, o‘zimizga o‘xshar ekan-da. (O‘.U.) 7. Mirrahimov jussasi kichkina bo‘lgani bilan tovushi juda yo‘g‘on va buning ustiga sekin gapirolmas edi. (A.Q.) 8. Poygakdag'i karavotda kitob o‘qib yotgan Hoji aka degan xasta yo‘g‘on gavdasiga nomunosib chaqqonlik bilan boshini ko‘tarib, ko‘zidan oynagini oldi. (A.Q.) 9. Hoji aka dardga bu qadar bardoshli ayoldan ham ko‘ra bunchalik vafodor erni ko‘rishga ishtiyoqmand bo‘lib qoldi-yu, xalatining belbog‘ini mahkam bog‘lab, shippagini kiydi. (A.Qah.) 10. Palata eshigi oldida bizni hindiga o‘xshagan qop-qora, katta-katta ko‘zları yonib turgan bir yigit, aftidan, Masturaning eri kamoli ehtirom bilan kutib oldi va har qaysimizga ayrim minnatdorchilik bildirib, ichkariga yo‘lladi. (A.Qah.)

### ***12-mashq. Ko‘chiring. Yasama sifatlarni aniqlang. Ularni morfemalarga ajrating. Qolgan sifatlarni alohida yozing.***

1. Numonjon yumshoq ko‘ngil, qizdekkina yigit ekan. (S.A.) 2. Uning arslonday ko‘rkam gavdasi, keng peshonasi, chuqur samimiyat

ifodasi bilan to‘la yirik ko‘zlari... unga yoqadi (O.) 3. Nihoyat Azizbek ham yonidagi 45050 sodiq kishilar bilan qochib, o‘rdaga qamalishga majbur bo‘ldi. (A.Qod.) 4. Xatiga qaraganda vafodor qizga o‘xshaydi. (I.Rahim.) 5. - O‘zingiz ham ilon po‘st tashlaydigan gap qildingiz-da,-dedi u xushomadgo‘ylik qilib. (I.Rahim.) 6. Yakka chinor qishlog‘i yangi kelgan kishiga ko‘rimsizroq, betartibroq ko‘rinadi.( O‘.U.) 7. Binoyi kiyingan, xushsurat bu yigit kirib kelganida tabib boshining tosh yuragi yumshagan edi. (T.M.) 8. Jamila sarvqomat, bejirim ayol edi. (Ch.A.) 9. Etagini qistirib olgan, uning bug‘doyrang chiroyli oyoq muskullari tarang tortilib, paylari uzulib ketgudek bo‘ladi. (Ch.A.) 10. Ochig‘ini aytsam, do‘xtir zotiga tobim yo‘q. (T.M.)

***13-mashq. Berilgan asos (o‘zak) morfemalarga sifat yasovchi qo‘sishimchalar qo‘shib, sifat yasang.***

1. Quyidagi so‘zlardan qo‘shma sifat hosil qiling, yoniga qavs ichida qaysi so‘z turkumlaridan hosil bo‘lganini ko‘rsating va yozilish qoidasini tushuntiring. Xomkalla (sifat-ot). to‘g‘ri, kulcha, jigar, sarv, bodom, yoqa, qiziq, uzun, och, katta, qora, yalang.

2. Sifatlar tarkibini tahlil qiling, ularni morfemalarga ajrating. Madadkor, xayoliy, madaniy, saxiy, salmoqdar, siyosiy, musiqiy, sitamgar, zotdor, tabiiy, jinoiy, falsafiy, xurofiy, jo‘g‘rofiy, quvnoq, oqsoq, g‘ovak, qiziq, iliq, ma’rifiy, sha’riy.

***14-mashq. O‘qing, sifatlarni topib, darajasini ayting. Qiyosiy va orttirma darajali sifatlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, sifatlarning o‘xhash va farqli tomonlarini izohlang.***

1. U o‘taketgan darajada sovuqqon, chaqqon, shijoatli va farosatli odam edi. (J. Vern.) 2. O‘zining kiyimlari... unikiga qaraganda qalin, issiqroq edi. (S.Anorboyev) 3. Otalar o‘z bolalarini dunyodagi bolalarning eng zo‘ri, eng xushbichimi deb bilishadi. (S.A.) 4. Yunus bobo... Safarning og‘zaki salo-midan kura ko‘proq xatidan umidvor bo‘lganini payqadi. (F. Niyoziy.) 5. U o‘zining shavq-zavqini ularga nisbatan yanada dabdabaliroq ifodalar edi. (S. B.) 6. Lekin hammasidan ham xavflirog‘i anovi Mirza. (N. Biryukov.) 7. O‘z uyi oldida, o‘z devorida unga eng og‘ir, eng dahshatli hukm bitilgan edi. (S.A.) 8. Odamlar bilan ishlashdan muhimroq va mushkulroq narsa yo‘q, azizim. (H G‘.) 9. Bu yerdagi kunimiz achchiq edi, u yerda tag‘in ham achchiqrog‘ini totidik. (O.) 10. U eng toza buloq suvidan ham tiniqroq. (J. Vern.)

**15-mashq. Quyidagi gaplarda ishtirok etgan son so‘z turkumiga oid so‘zlarni aniqlang.**

1. Otamiz uch kundan keyin qaytib keladi. (T.M.) 2. Uch tillo, beraman, lekin vafotimdan so‘ng Butun mol-u mulkim uning izmiga o‘tar. (V.Sh.) 3. Haqiqatan ham chorak soat o‘tar-o‘tmas Mavlon keldi. (O‘.U.) 4. Ikki kun burun qizi o‘qishga ketdi-yu, qaytmadi. (T.M.) 5. Aytishlaricha, bunday odamlar yuz yilda bir tug‘ilar emish... (O‘.U.) 6. Qisqa qilib aytganda, ommaviy axborot vositalari tom ma’noda “to‘rtinchи hokimiyat” darajasiga ko‘tarilmog‘i lozim. (I.A.Karimov.) 7. Keyinchalik berigi uyning egasi dunyodan o‘tib, xotini ikki go‘dak bolasi bilan qoldi. (Ch.A.) 8. – Shamshiddinov, bir soatga yaqin shu to‘g‘rida gaplashdik, xayolingiz mijozlaringizdamidi? (Sh. X.) 9. Ertakdagи uch og‘a- ini kabi ular uch yo‘l qarshisiga kelib qolgan edilar. (T.M.) 10. Ona itdan ellik-oltmis qadam beridan o‘tdi. (T.M.)

**16-mashq. Chama son bilan jamlovchi son qatnashgan gaplarni aniqlang va ajratib yozing.**

1. Alkiviad tashrif buyurdi, yigirmatacha ulfati unga hamroh. (V.Sh.) 2. Xudo xayringni bersin, aylanay, kelinimga tegma, o‘rog‘ini o‘rib yuraversin, shusiz ham yolg‘izlik azobini tortib, ikkala xonadonning tirikchiligidan bosh qashirga ham qo‘li tegmaydi! (Ch.A.) 3. Yigirmatacha qadam bosib, orqasiga o‘girildi. (T.M.) 4. – Ikkalamiz shu yerlarda sigir boqardik, – u birdan kulib yubordi. (O‘.H.) 5. Ona itdan ellik-oltmis qadamcha beridan o‘tdi. (T.M.) 6. - Qani o‘rtoq raykom, ikkalamiz mana shularga bir namuna bo‘laylik. (T.M.) 7. Uch- to‘rt oyda eson-omon qaytadi. (T.M.) 8. Xullas, ikkala xonadonning tirikchilagini, ro‘zg‘orini oyim bilan singilcham tebratib turardi. (Ch.A.) 9. Ertasi saxarlab Doniyor ikkalamiz otlarni xirmonga olib keldik. (Ch.A.)

**17-mashq. O‘qing. Numerativ so‘z bilan birga qo‘llangan sonlarni aniqlab, numerativ so‘zlarning ma’nosini izohlang.**

1. O‘zlarining zo‘rlab bo‘lsa ham bir qoshiq-yarim qoshiqdan ovqat ichinglar! (N. S.) 2. Mayning yettilariga borib urug‘ sochish kerak! (S.Ayniy.) 3. – Qayvaqtida bo‘lgan bo‘lishi mumkin? – Bundan o‘n asrlar muqaddam, do‘stim. (N. Biryukov.) 4. Soatiga atigi olti milya yo‘l bosyapmiz. (Y. Smuul.) 5. Bir yillik xirojni – uch yuz ming dinorni oldindan yubortirdi. (S. B.) 6. U turgan joydan ellik qadamlarcha narida trassa ko‘kintir chiroqlar bilan yoritilgan. (N. Biryukov.) 7. Ichkariga kir,

uka. Biron piyola choy ich! (S.A.) 8. Shtirlits soatiga qaradi: roppa-rosa yetti. (Y. Semyonov.) 9. Uch-to‘rt oygina bo‘lsa ham diydoriga to‘ydirib ketdi. (S.A.) 10. Zulfiqorovning xotini bitta qiyiqchada uch-to‘rtta anor, bir kilodan mo‘lroq sariq kishmish olib keldi. (A. Q.) 11. ...O‘n ming juftdan ortiq ko‘zlar bahaybat qoyali tog‘larga tikildi. (N. Biryukov.) 12. Uzoqda, taxminan, uch chaqirim narida tog‘ tizmasi ko‘rinib turardi. (F. Muhammadiyev).

***8-mashq. Gaplar tarkibidagi olmoshlarni aniqlang.***

1.Biz ishimizni bilib qilamiz. (T.M.) 2. Ammo shahzoda hech kimga parvo qilmas, o‘z aqliga,o‘z kuchiga maxliyo edi, ko‘p vaqt ni otasining taxtidao‘tkazardi.( O‘.U.) 3. Bu bolaning turqi sovuqroq edi. (T.M.) 4. Seningcha bu olmosning bahosi qancha? (V.Sh.) 5. Baribir bu mening izzat-nafsimga qattiq tegar, yangamni rashk qillardim. (Ch.A.) 6. Dam o‘tmay u kaftlari bilan yassi peshonasini, baroq qoshlari aralash yuz-ko‘zlarini artardi.(O‘.U.) 7. Shu-shu bo‘ladi-bobomiz dalasi yuzini qaytib ko‘rmas bo‘ladi. (T.M.) 8. Ajab, uyga qachon, kim bilan qaytdi ekan? (T.M.) 10. Ha, chindan ham yangamni hech kimga ravo ko‘rmay rashk qillardim. (Ch.A.)

***19-mashq. Quyidagi gaplar orasidan ko‘rsatish olmoshlari qatnashgan gaplarni aniqlang.***

1. Men ana ketdi, mana ketdi bo‘lib yotgan edim-da, o‘sha kuni ertalab birov avtobusda yig‘lab ketayotgan bir bolani ko‘rib, mening ukamga o‘xshatibdi-yu, shundan haligiday gap tarqalibdi. (A.Q.) 2. Bu gap ham uning diliga tugildi. (T.M.). 3. Xo‘s, o‘sha ellik uch daqiqa nima qilinadi, keyin? (A.S.Ekzyuperi.). 4. Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta! – dedi, – hozir tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan joni basharti so‘ngan taqdirda ham, qolgan mingtasini yoqib keyin so‘nadi. (A.Q.) 5. Agar biron kishinikiga mehmon kelib qolsa, hammasi navbatma –navbat chaqirishadi. (O‘.U.) 6. Savodsiz, o‘qimagan Shu menga boshliq,— alam bilan o‘yladi Sodiq.— Men esam oliy ma’lumotli yurist. (Sh. X.) 7. Bu oyimga juda yoqardi, pishiq bo‘lsin, yog‘ochdan boshqani bilmaydigan otasiga o‘xshamay, ro‘zg‘or ishlariga aralashib ko‘zi pishsin, der edi. (Ch.A.) 8. Seningcha bu olmosning bahosi qancha? (V.Sh.) 9. Jasur kapitan bu dadil bolani yoqtirib qoldi. (J.Vern.) 10. Bu – hayot qonuniyati, biz uni inkor etolmaymiz va inkor etishga haqqimiz ham yo‘q. (I.A.Karimov.)

**20-mashq. O‘qing. Olmoshlarni aniqlab, ma’no jihatdan turini ayting va jadvalga yozing. Ularni qatnashtirib misollar tuzing.**

Olmoshlarning ma’nosiga ko‘ra turlari	Misollar
Kishilik olmoshlari	
Ko‘rsatish olmoshlari	
So‘roq olmoshlari	
Belgilash olmoshlari	
O‘zlik olmoshi	
Bo‘lishsizlik olmoshlari	
Gumon olmoshlari	

**21-mashq. Gaplar tarkibidagi fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlarni topib tahlil qiling.**

1. Pichir-pichir eshitaverib ko‘zim ketadi. (T.M.) 2. Oradan yillar o‘tib, urushda mutlaq g‘olib bo‘ldim, degan to‘xtamga kelib qoldi. (T.M.) 3. Uzr, “a’lo hazratingni” deyishim kerak edi, negaki, xudodan senga marhamat bo‘lmaydi...(V.Sh.) 4. Esim qursin, ovqatga unnamay o‘tirishimni qara. (O‘.U.) 5. – Bo‘shashma, kichkina bola, oz qoldi! – deb qo‘yardi. Biroq o‘zi ham qattiq charchaganidan ovozi bo‘g‘ilib chiqardi. (Ch.A.) 6. Shu-shu bo‘ladi- bobomiz dalasi yuzini qaytib ko‘rmas bo‘ladi. (T.M.) 7. Negaligini xudo biladiyu dilimni yana qo‘rg‘oshindek g‘ashlik qopladi. (A.S.Ekzyuperi.) 8. Ochiq derazadari tip-tiniq osmonnin g bir chekkasi ko‘rinib turardi. (O‘.H.) 9. Kemada u dengizchilik hunarini o‘rgana boshladi. (J.Vern.) 10. Bizning shefimiz o‘sha aytgan odamingiz bilan Muniraxon to‘g‘risida gaplashgan ekan. (Sh. X.)

**22-mashq. O‘qing, bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llarni aniqlab, ma’nosidagi farqni tushuntiring. Ularni ikki ustun shaklida yozib, bo‘lishsizlik ma’nolarini ifodalovchi vositalar tagiga chizing.**

1. Miyasi g‘ovlab ketgan Mirzo Ulug‘bek boshini ko‘tarib yonveriga qaraydi. Oftob ko‘rinmas, osmonni qora bulut qoplab olgan edi. Dalalar va adirlarda, o‘rib olingan bo‘g‘doyzorlarda, hatto olisyaqindagi bog‘larda biron-bir odam qorasi ko‘zga chalinmas hatto qirlarda mollar ham ko‘rinmas edi. Go‘e Mirzo Ulug‘bek lashkari emas, talanchi qo‘sish bostirib kelayotganday, tirik jon borki, bari qochib in-iniga kirib ketgan. Ha, fuqaro bobosi Amir Temur davridayoq jang-jadaldan bezgan, yuragi zirqirab qolgan.

Mirzo Ulug‘bek og‘ir xo‘rsinib oldinga, ko‘kimir tuman orasida elas-elas ko‘zga chalingan tog‘larga tikildi. Ilgarilab ketgan qo‘shin ko‘rinmas, faqat oldindagi yassi qir va adirlarda ot o‘ynatib yurgan suvorilar guruhi ko‘zga chalinar edi, xolos. (O. Y.)

II. 1. Navoiy Binoiyning iste’dodini mehr bilan parvarish qildi, har bir ishda do‘stona ko‘magini ayamadi. (L. Bat.) 2. Shunday hayot tug‘ildiki, u sensiz yashay olmaydi, sen uning qudratli kuchisan. (Asqad Muxtor.) 3. Shunday paytlarda u na chala olardi, va na ashula ayta olardi. (J. Ikromiy.)

***23-mashq. O‘qing, bo‘lishsiz fe’llarni topib, bo‘lishsizlik ma’nosi qanday ifodalanganini ayting, ularni bo‘lishli shaklga aylantiring.***

1. Hechqisi yo‘q, azizim, men dunyoda juda katta boylikka – sof vijdonga va xushomadgo‘ylik qilmay ilmu fan bilan shug‘ullanish imkoniga egamen. Buni mendan hech kim tortib ololmaydi. Bilimlarimni boshqalar bilan o‘rtoqlashmoqni ham hech kimsa taqiqlay olmaydi. (L. Bat.) 2. Ahillik bor yerda temir ham suvga cho‘kmaydi. (Sh.) 3. Chin do‘stlikning alangasi so‘nmasin der ekanmiz, Birinchi shart – bo‘lmog‘imiz lozim do‘st-la birga biz, Ikkinci shart – do‘st yo‘lida ayamaslik simu zar, Uchinchi shart – do‘st-la bo‘lmoq og‘ir kunda barobar. (Sh. Rustaveli.) 4. Ilm-hikmat bilan ko‘tariladigan shosupaga qurol bilan chiqib bo‘lmaydi. (K. Hamro.) 5. Munisxon va’da bergen vaqtida kelmay qolmaydi. (A. Q.) 6. Na cho‘zilar, na yonboshlar – bo‘sh turardi to‘sak-joy.(Sh. Rustaveli.)

***24-mashq. O‘qing. Fe’llarni topib, ularning nisbatini, o‘timli-o‘timsizligini ayting.***

1. Biz juda ko‘p ish qildik. Yaqinginada esa juda ajoyib tajriba o‘tkazdik, ya’ni otash ta’sirida ba’zi toshlarning tusini o‘zgartirmoqchi bo‘ldik. Bir parcha yoqutni ko‘rada obdan qizdiridik. Keyin soviganiga qadar qo‘l tegizmadik. Qizdirilgan yoqutning hajmi otash ta’siridan bir oz kichraygan bo‘lsa-da, rangi tiniqlashdi. (K. Moiseyeva.)

2. Bir dovonga chiqqanda ular tomiri bilan ag‘darilib yo‘lda ko‘ndalang yotgan baqaterakka o‘tirib dam olishdi. O‘ngda bir xil kiyangan, bo‘y-basti ham bir xildagi behisob ko‘k archalar uzun-uzun saf tortib, qiyalikka chiqib ketayotgan askarlardek ko‘rinardi. Yengil shabnam hali yerda, o‘t-o‘lanlar, gullar orasida yotadi, tiniq osmon

tagida butun vodiy ko‘z oldingizda kaftdek yastangan, qaerdadir chashma ko‘zi miltillaydi, havo sofligidan archa hidi, asal hidi anqiydi. (*Asqad Muxtor.*)

**25-mashq. *O‘qing, fe’llarni topib, nisbatlarini belgilang va ularni quyidagi jadvalga yozing, nisbat yasovchi affikslar tagiga chizing.***

Nisbatlar	Misollar
Aniqlik	
O‘zlik	
Majhullik	
Birgalik	
Orttirma	

Ayolning nafosati va nazokati, vafo va sadoqati, aql-zakovati va fidoyiligi asrlar mobaynida yer yuzida hayot davomiyligi va abadiyligiga asos bo‘lib keladi. Shu bois ham dunyodagi eng buyuk san’at asarlari, qo‘sish va qasidalar, me’moriy obidalar ayollar sha’niga bag‘ishlangandir.

Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e’zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

Sizlarga yaxshi ma’lum, hurmatli opa-singillarimizning jamiyat hayotidagi o‘rni va nufuzini oshirish maqsadida yaqinda “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash” va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni qabul qilindi.

Farmonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, qonuniy manfaatlarini ta’minlash, qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, oila institutini mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilishga qaratilgan ko‘plab chora-tadbirlar belgilandi.

Hech kimga sir emas, Xotin-qizlar qo‘mitasidan, uning joylardagi bo‘limlaridan ko‘p narsalarni talab qilar edik. Lekin, ochiq aytish kerak, buning uchun ularda yetarlicha imkoniyat bormi-yo‘qmi, bu haqda ko‘pincha o‘ylab ko‘rmas edik. Bu qo‘mita ayollarning muammolarini bilgani bilan, ularni hal etish bo‘yicha deyarli amaliy choralar ko‘rolmas edi.

Shularning barchasini hisobga olib, avvalo O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalarining yangilangan tuzilmalari tasdiqlanib, shtat birliklari hamda xodimlarining oylik ish haqi oshirildi. Ularga qo‘shimcha vakolat va imkoniyatlar berilib, samarali faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Farmonga binoan shu yil 1 apreldan boshlab fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etilmoqda.

Shunga e’tibor bering, endi 8 ming 800 ta bilimdon, jonkuyar mutaxassis ayollar oilaviy munosabatlarni yaxshilash, nizoli vaziyatlar, ajralishlar, barvaqt nikohlarning oldini olish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, xotin-qizlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi bo‘yicha doimiy ish olib boradi.

Hammamiz yaxshi tushunamiz, bugungi tez o‘zgarayotgan, ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o‘rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko‘plab murakkab savollarga javob topish qiyin. Shuning uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil qilindi va ularning ish faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, bino va zarur jihozlar bilan ta’minlash choralar ko‘rilmoqda. (Sh.M.Mirziyoyev.)

**26-mashq. Quyidagi fe’llarni o‘qing, bir o‘zakdan hosil bo‘lgan turlicha fe'l shakllari orasidagi farqni tushuntiring. Ularni qatnashtirib gaplar tuzing.**

Yasadi, yasandi, yasaldi, yasashdi, yasatdi; yutdi, yutishdi, yutqizishdi, yuttirdi, yutindi, yutildi; ko‘rildi, ko‘rishdi, ko‘rsatdi, ko‘rindi, ko‘rgazdi, ko‘rdi; kiydi, kiygizdi, kiyindi, kiyildi, kiyishdi; o‘tishdi, o‘tindi, o‘tkazdi, o‘tildi, o‘tdi; qirdi, qirindi, qirdirdi, qirishdi, qirildi; urdi, urildi, urindi, urishdi; yechishdi, yechildi, yechdirdi, yechindi, yechdi; so‘radi, so‘ratdi, so‘rashdi, so‘raldi.

**27-mashq. Quyidagi fe’llardan turli fe'l nisbatlarini yasang.**

Atamoq, bastalamoq, bilmoq, bitmoq, boshlamoq, bog‘lamoq, bo‘ysunmoq, gapirmoq, gullamoq, dimlamoq, yemoq, yelpimoq, yozmoq, yoymoq, juftlamoq, jo‘valamoq, zerikmoq, yig‘moq, kertmoq, kuylamoq, laqillamoq, mustahkalamoq, nikellamoq, ovlamoq.

**28-mashq. O‘qing. Fe’l zamonlarini aniqlang. Yaqin va uzoq o‘tgan zamon fe’li ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, zamon ma’nosinn ifodalovchi affiks tagiga to‘g‘ri, tuslovchi (shaxs-son) affiks tagiga to‘lqinli chiziq chizing.**

I. Har faslning o‘z quvonchi bor. Qish ham kattadan-kichik hammaga bir olam shodlik baxsh etadi. Ikki kundan buyon muzdekkina qish farishtasi shahar ustida kezib, elagini silkitar, quloq-burni qizargan odamlar “Yangi yilbop qor bo‘lyapti-da”, deb kulishar, havoda musaffo chilla isi kezar edi. Kinoteatrлar, madaniyat saroylarida ta’tilga chiqqan bolalarning kulgisi yangraydi. Katta maydonlarda archalar bezatildi.

Yilning so‘nggi oqshomida Toshkent yashnab ketdi. Katta binolar peshtoqida son-sanoqsiz lampochkalar marjoni porladi, archalar nurga belandi. Oziq-ovqat magazinlari tirband bo‘lib ketdi. Sumka, to‘rxalta ko‘targan odamlar uy-uyiga shoshishar, tanishbilishlarini ko‘rib, bayram bilan qutlashar edi. (O‘.H.)

II. 1. U sultonning o‘ng qo‘li ekanligini ta’kidlamaslik uchun jo‘rttaga boshqalardan keyinroq kelgan edi. Har vaqtdagidek u o‘zini kamtar va xushmuomala tutdi. (L. Bat.) 2. Onaning dili o‘g‘lining yuziga tepib chiqqan alamli norozilikni darrov sezgan edi. (S. Anorboyev) 3. Tug‘ilib o‘sgan shahrini u allaqachon tark etgandi. (L. Bat.) 4. Odamlarning ko‘ziga tushmaslik uchun kun bo‘yi yong‘oqzorda dam olishib, namozgarda yana yo‘lga tushishgan. (O. Y.)

**29-mashq. O‘qing. O‘tgan zamon fe’li shakllarini aniqlang; o‘tgan zamon hikoya, o‘tgan zamon davom, o‘tgan zamon maqsad fe’llarini guruhga ajratib yozing.**

1. Lashkar qirg‘oqqa joylashdi. (L. Bat.) 2. Iskandar hind podshohini o‘ziga bo‘ysundirmoqchi, o‘z dini va hukmronligini unga qabul ettirmoqchi bo‘ldi. (“Kalila va Dimna”dan) Zo‘r bir mardlik qilibsan, Lekin bekor kelibsang. (H. O.) Seni deya qavmu qarindosh Ixtiyorim olgan ekanlar Va kishanga solgan ekanlar. (H. O.) 5. Vaholanki, siz, xotin kishining topgani nima bo‘lardi, xotini boqayotir, degan isnodga tobim bor ekanmi, deb firoq qilib yurgan emishsiz. (A. Muhiddin.) 6. O‘z rolingni tushunibsang g‘oyat haqqoniy. (H.G‘.) 7. Botirjonni otasi podshoning eng usta qilichbozlaridan biriga shogird qilib beribdi. U ustozidan qilichbozlikni, yoyandozlikni va nayzabozlikni ham, kurash tushishni ham o‘rganibdi. («Gulpari».) 8. Yaqindagina dam olib olgan navkarlar safar daragini eshitib quvonar

edilar. Navkarlar sovutlarini yarqiratib tozalashar, naqsh solib egarlarini tartibga solishardi. (L. Bat.)

**30-mashq.** *O‘qing, hozirgi zamon fe’llarini topib, turini anihlang. “Hozirgi zamon davom fe’li” va “Hozirgi-kelasi zamon fe’llari”ni ikki ustun shaklida yozib, yasalishi va tuslanishini tushuntiring.*

Tekislikka yoqqan yomg‘ir tog‘ tepasiga qor bo‘lib tushgan ekan... Tog‘ning yarmidan pasti yomg‘irdan keyin qorayib, xiyol bug‘lanib turadi va uncha aniq ko‘rinmaydi.

Tekislikning uzoq chetidan chiqib kelgan yuk mashinasi shu toqqa qarab jadallab boryapti.

Shag‘al yotqizilgan yo‘lda yomg‘ir ko‘lmaklari uchraydi. G‘ildiraklardan sachragan suv bort taxtasiga shatirshutur uriladi va yo‘l bo‘yida ochilgan lolaqizg‘aldoqlarni jimgina silkitib o‘tadi. (P.Qodirov)

**31-mashq.** *O‘qing, kelasi zamon fe’llarini topib, turini aniqlang va “Kelasi zamon gumon fe’li”, “Kelasi zamon maqsad fe’llari”ni ikki ustun shaklida yozib, shaxs-son affikslari tagiga chizing.*

1. Men Hirota Sulton Husayn Boyqaro hazrat oliylarining amri bilan to‘ppa-to‘g‘ri jang maydonidan keldim. Ulug‘ sulton o‘z fuqarolarini baxtiyor va badavlat qilmoqchilar,adolat yo‘li bilan mamlakatni gullatib-yashnatmoqchilar; yordamga muhtoj bo‘lgan har bir kimsaga ko‘maklashmoqchilar. (L. Bat.) 2. Meni kutgil va men qaytarman O‘limlarni qoldirib dog‘da. 3. Faqat agar unasang, Yana bir shart qo‘yardim. (H. O.) 4. Kim biladi, balki Mirhaydar otamni ham oyog‘idan chalar bir kun...(O.) 5. Men sizni bir marta himoya qilarman, ikki marta himoya qilarman, oxir-oqibatda himoya qilolmay qolishim mumkin. (S.A.) 6. Azizjon hech qanday ilmiy asosga suyanmagan holda paxtachilikka yovvoyi pushtni kiritmoqchi. (O‘.U.)

**32-mashq.** *O‘qing, buyruq-istak mayli shaklida qo‘llangan fe’llarni topib, shaxs-sonini izohlang.*

1. Ulug‘ ishingizni aslo tashlamang! Siz yaratgan «Xamsa» san‘at olamida chinakam mo‘jiza bo‘ldi. Shu bilan qanoatlanib qolmang. O‘z ona tilingizda bitgan g‘azallaringizni bir necha devonga to‘plagansiz; shularni bir-biridan ajrating va har qaysisini o‘ziga munosib nom bilan bezang. (L. Bat.) 2. Sizlarning shu yerda yuqori hosil olishingiz – to‘qayni o‘zlashtirish bilan barobar, iltimosim shuki,

yerga ehtiyot bo‘linglar. Oltin yerimizni ko‘z qorachig‘iday saqlanglar. Agrotexnikani mahkam ushlanglar. (H.G‘.) 3. Qizim, baxtli ekansanki, ...paxtakorlik yo‘liga kiribsan. Bu yo‘ldan zinhorzinhor toyma, yildan-yilga naxtani ko‘paytiraver. Bizning mashinalarimiz tolasi uzun-uzun, birinchi sort paxtani yaxshi ko‘radi. Buniyam unutma. (O.) 4. Kel ipakday sochlaringga men Nurdan lenta yasab taqayin. (M.) 5. Mingdan ortiq xaridor... Biri deydi: «Yuz jiyyon – Sovg‘a qilay, ol, jiyan!» Boshqasi der: «Ming bosh qo‘y – Beray qilgin katta to‘y!» Yana biri der: «Do‘stim, Ol qirqta suvsar po‘stin. Faqat oting ber menga!» Ovchi unga der: «Nega?» (Q. H.)

***33-mashq. O‘qing. Shart mayli shaklidagi fe’llarni topib, yasalishi va tuslanishi, zamon ifodalash xususiyatini tushuntiring.***

1. Xayol bilan bo‘lib ko‘chaga chiqayotsam, eshik oldida sariq fufayka kiygan, kulcha yuzli notanish bir qiz ro‘para bo‘ldi. (O. Husanov.) 2. Sen hayqirsang ko‘pirib, g‘uncha tabassum etar, Bulbul qo‘shig‘i bilan bo‘ston jaranglab ketar. (S. Nazar.) 3. Kimga kulib boqsa quyoshli davron, Saodat o‘lkasi bo‘lsa diyori, Bo‘lmas yuragida zarracha armon, Yashnar menikiday ko‘ngil bahori. (S. Nazar.) 5. Kiyintirsam seni bahorga, Yulduzlarni o‘rasam qorga, Olib kelib oldingga qo‘ysam, Ham yulduzni, ham seni suysam... Shunda sening ko‘ngling to‘lurmu? (H. O.)

***34-mashq. O‘qing. Fe’llarni topib, mayli, zamonni va shaxssonini izohlang.***

I. O‘ktam kitel tugmalarini yechib, «Uh!» deb yelpindi va sekin so‘z boshladи: “O‘rtoq Akaskin, Sobir to‘g‘ri aytadilar. G‘o‘za parvarishni qattiq suyadi. Hosilot raisi sust, beparvo, ammo jon Qarimqul ota, hammamiz bir tan, bir jon bo‘lib, ishtiyoq bnlan mehnat qilaylik. Suv, o‘g‘it, go‘ng berishlarni, chekanka va chopiqlarni joyida o‘tkazib, agrotexnikaning qonun-qoidalariga tom rioya bilan ishlaylpkki, g‘o‘zamiz baquvvat bo‘lsin, dalamiz dirkillab tursin”. (O.)

II. Darvishona yashamoqni ixtiyor etgan bo‘lsangiz, biror foydali mehnat bilan shug‘ullaning: dehqonchilik qiling, kavshdo‘zliknimi, to‘quvchiliknimi o‘rganing. Tilanchilik qilish, topganiningizni o‘zingizga o‘xshash bekorchilar bilan baham ko‘rish nomus. Bu kasb insonni ulug‘lamaydi, balki ma’naviy tubanlikka olib boradi, mehnatdan qo‘l siltamang, odamlardan yuz o‘girmang, aksincha ularga ko‘maklashing. (L. Bat.)

### ***35-mashq. Quyidagi gaplar tarkibidagi fe'lning vazifadosh shakllari toping.***

1. Shahar va qishloqlarimiz qiyofasini tubdan o'zgartirish, odamlarning yashash sharoitini yaxshilash, ayniqsa qishloq aholisi uchun shahardagidan qolishmaydigan uy-joylar qurish bo'yicha katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. (Sh.M.Mirziyoyev.) 2. Davrada ikkita go'zal eshilib-eshilib o'ynadi, to'lg'anib-to'lg'anib o'ynadi: biri olov bo'ldi, biri qiz bo'ldi! (T.M.) 3. Ko'rish va sezish, bu mavjud bo'lmoqlikdir, mulohaza yuritish esa yashash demakdir. (Yilyam Shekspir.) 4. Baxt - faqat boylikda, deb hisoblovchi kishida , albatta, kibr mavjud, baxillik mavjud, hiyonat, riyo mavjud. (T.Mal.) 5. Ayollar doirani yelpib-yelpib, halqachalarni shildiratib-shiddiratib olovga tobladi. (T.M.) 6. Biz xorijiy mamlakatlarda qonuniy asosda mehnat qilayotgan, ta'lim olayotgan fuqarolarimizga nisbatan munosabatni tubdan o'zgartirdik. (Sh.M.Mirziyoyev.) 7. Zolimning zulmidan ezilgan va qo'rquv bosgan tuvaloq inida yotgan joyida jon beradi. (Abu Xurayra.) 8. Ayniqsa, ichki turizm bo'yicha yaratilayotgan imkoniyatlar yurtimiz bo'ylab sayohat qilish, o'z tariximiz va madaniyatimizni yanada chuqur bilishga qaratilgani bilan e'tiborlidir. (Sh.M.Mirziyoyev.) 9. Tom ustida yonboshlab olmish Nabi oqsoqol to'yxonadagi voqyealardan ko'z-qulqoq bo'ldi, tegishli yo'l-yo'riqlar berdi. (T.M.) 10. Viloyatning mirishkor dehqon va fermerlari bu yil ham barcha qishloq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha mo'l hosil yetishtirib, uni o'z vaqtida, yuqori sifat bi-lan yig'ib-terib oldilar. (Sh.M.Mirziyoyev.)

### ***36-mashq. Quyidagi gaplar tarkibidagi yasama fe'llarni toping.***

1. Kampir yangi ko'rpacha solib, Abdullani o'tkazar ekan, sevinchi ichiga sig'may, shang'illab gapirar, Abdulla esa javob berishga ulgurolmay jilmayardi. (O'.U.) 2. Ikkitasi o'lgudek qo'rroq, darrov juftakni rostlashadi. (V.Sh.) 3. Qitir-qitirdan Umida qayta uyg'onib ketdi shekilli, norozi to'ng'illadi. (O'.H.) 4. Zohid xotinining amriga bo'ysunib chap tomonga yonboshladi. (T.M.) 5. Endi qo'yib ber, men yashashim kerak. (O'.U.) 6. Darvoqe, bizgao'xshash ashaddiy kissavurlarni ko'proq kun qushlarimas, tun qushlari deb atashsa, yarashadi. (V.Sh.) 7. 1967-yilning jazirama yoz kunlaridan birida Mingbuloqqa kiraverishdagi oq tunukat omli uyning eshagini yosh bir yigit taqillatdi. (O'.U.) 8. Yo'q, oshna , men sendan ayrilib qolgim kelmaydi. (T.M.) 9. Uning quvnoqligi, o'zini erkin tutishi

bilan faxrlanardim. (Ch.A.) 10. Hozir, yuragi qinidan chiqayozgan holda qorong‘i bo‘shliq sari uchib borayotganda shu so‘zlarni esladi. (T.M.).

***37-mashq. To‘liqsiz fe’llar bilan qo‘llangan yasama fe’llarni tahlil qiling.***

1. Shimoliy qutbdagi yagona fonusni yoqishi lozim bo‘lgan charog‘bon bilan uning Janubiy qutbdagi hamkasbiga hammadan ham mazza edi. (A.S.Ekzyuperi.) 2.Onasi necha yildirki, uni uylantirishni orzu qilar, ammo Alimardon unamas edi. (O‘.H.) 3. Bu bolaning turqi sovuqroq edi. (T.M.) 4. O‘sha kuni havo ochiq, quyosh nur sochmoqda edi. (J.Vern.) 4. Orqada o‘tirgan Munira derazadan tevarakka tikilib, allanarsalarni o‘ylab borar edi. (Sh. X.) 5. Aytishlaricha, bunday odamlar yuz yilda bir tug‘ilar emish... (O‘.U.) 6. Albatta, bu aytilgan gaplar yangilik emas. (I.A.Karimov.) 7. Jamila sarvqomat, bejirim ayol edi. (Ch.A.) 8. – Alimardon o‘shanda ham shayton edi... (O‘.H.) 9.Oyoqlari tagida dumaloq bo‘lib ochilib turgan fok yelkani, tepasida es fokmarsel yelkani shamolday yoyilib yotar edi. (J.Vern.)

***38-mashq. Ravishlarni aniqlang, ularning ma’no turini yozing.***

1. Shu payt hovli tomondan kimningdir tovushi eshitildi. (A.Q.) 2. Endi siz qachon hisob berasiz? (A.Q.) 4. Mardlarcha kurashmoq mardlarning ishi. (S.A.) 3. -Xo‘p, -dedim. Ko‘p savdolashmay kirani kelishdik. (O‘.U.) 4. Otaginam, men, mol-dunyo uchun olishmadim. Mol-dunyo hirsidan o‘zimni hamisha saqlab keldim.(T.M.) 5.Boisi, o‘zga tumanlardan polvonlar ko‘p keldi. (T.M.) 6.Bir kuni osmoni falakni qora bulut qopladi. (O‘.U.) 7....Fotihadan so‘ng, Hojar buvi darrov dasturxon yozdi, birpasda choy damlab keldi-da, nevarasining yoniga o‘tirdi.(O‘.U.) 8. Hovlida esa musicha hamon quqular, chars-chars yonayotgan g‘o‘za poya ovozi unga qo‘shilib g‘alati, orombaxsh ohang kasb etardi.( O‘.U.) 9. Seni bir o‘zgacha yo‘qlaydi bahor, Meni yo‘qlaydi kuz o‘zgacha. (M.Abdulhakim.) 10. Endi men jimgina faryodman, Endi sen jimgina nolasan. (M.Abdulhakim.)

***39-mashq. Yasovchi qo‘srimchalar yordamida yasalgan ravishlarni topib, qaysi turkumdan yasalganini aniqlang.***

**N a m u n a : otalarcha – ot turkumidan yasalgan.**

1. Demak, shohga ma‘qullari durust aqcha olganlar, qolganlari kamroq yoki butunlay olmaganlar. (T.M.) 2. Ularning nima deyayotganlarini bilayotgandek, gunohkorlarcha bosh egib ko‘zlarini

yerdan uzmay turaverardi. (S.A.) 3. Men qaytara olmadim, - dedi Abror va kinoyaomuz jilmaydi. (P.Q.) 4. Lekin bugun Rahmonov ochiq gapirgani durust bo‘ldi, men ham ochiqchasiga olishdim. (P.Q.) 5. Sen ham yigitchasiga gapirgin-da, axir! (P.Q.) 6. .-Mayli, ertaga boshqa qilib berarsiz, -dedi Obid aka. (O‘.U.) 7.Yoshlik endigina qanot chiqargan uchirma qushga o‘xshaydi. (O‘.U.) 8. -Siz bugun-erta mehmonsiz, cho‘chimang. (O‘.U.) 9.Ertasiga ertalab Usmon aka bilan uchrashdim. (O‘.U.) 10. Bir mahal bunday qarasam, ancha joyga borib qolibman. (O‘.U.)

***40-mashq. Berilgan ravishlami qaysi so‘z turkumlardan yasalganligini aniqlang va jadvalga joylashtiring.***

Zo‘rg‘a, hali, yayov, birdaniga, tasodifan, ertalab, qo‘qqisdan, qasddan, bukri, mardona, qahramonlarcha, mutlaqo, bahorda, ko‘p, ochiqchasiga, ko‘plab, rasman, javoban, makkorona, oldin, tasodifan, mardlarcha, qayta, ostin-ustin, bafurja, andijonchasiga, ataylab, bag‘oyat, arang, hali zamon, so‘ngra, halitdan.

Olmosh	Son	Sifat	Ravish	Taqlid so‘z	Tub ravish

***41-mashq. Yordamchi so‘zlarni turkumlarga ajrating.***

Biroq, qarab, chunki, faqat, bilan, hamda, uchun, xuddi, ba’zan, ya’ni, sari, nahotki, kabi, agar, yolg‘iz, balki, singari, xolos, garchi, negaki, qadar, ko‘ra, na-na, bo‘yi, lekin, so‘ng, ilgari, bo‘lak, mabodo, axir, goh-goh, hatto, lim, evoh, orqa, tomon, ham, yoki,

Ko‘makchi	Bog‘lovchi	Yuklama

***42-mashq. O‘qing. Ko‘makchilarni toping, ko‘makchilar o‘zi bog‘langan so‘z bilan qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelganini belgilang.***

1. Gulnor ota-onasi siqig‘i ostida boyga turmushga chiqishga ko‘nikkandir. (O.) 2. Xolboy surnaychi ikkita doirachi bilan mumtoz musiqalar tarona etdi. (T.M.) 3. Ertasiga ertalab Usmon aka bilan uchrashdim. (O‘.U.) 4. Ertasiga Mastura haqida yana bir ko‘ngilsiz gap eshitdik: bechoraning tomog‘idan hech narsa o‘tmasligi ustiga

qorniga tez-tez suv to‘planar ekan. (A.Q.) 5. To‘g‘ri, partiyaning talabi biz uchun qonun! (T.M.) 6. Xo‘sish, biz uchun buyuk o‘lja, shonli bir zafar- Emasmi bu o‘zing ayt-chi, aziz birodar? (V.Sh.). 7. Uning quvnoqligi, o‘zini erkin tutishi bilan faxrlanardim. (Ch.A.) 8. Ajab, uyga qachon, kim bilan qaytdi ekan? (T.M.) 9. Otaginam, men, mol-dunyo uchun olishmadim. Mol-dunyo hirsidan o‘zimni hamisha saqlab keldim. (T.M.) 10. Amaki, Hoji akamga salom aytинг, – dedi va ufqda kutib turgan Akramjonga tomon ot qo‘yib ketdi. (A.Q.)

#### ***43-mashq. Bog‘lovchilarni topib, ularni turlarga ajrating.***

1. Qamishlar orasida goh boshi ko‘rinar, goh suvgaga sho‘ng‘igandek yo‘q bo‘lib ketardi. (S.A.) 2. Shaharga qaytganimizdan keyin Masturaning omonatini topshirish uchun Hoji akani topdim, lekin salomini topshiroldim: Hoji aka bechora qazo qilgan ekan. (A.Q.) 3. Uy keng va chiroyli bo‘lib, hamma devori tokchalardan iborat edi. (O‘.U.) 4. Na ko‘kning fonari o‘chmasdan, na yulduz sayr etib ko‘chmasdan... (Uyg‘un.) 5. Xullas, ikkala xonadonning tirikchilagini, ro‘zg‘orini oyim bilan singilcham tebratibturardi. (Ch.A.) 6. Bir zo‘r otash, bir zo‘r alanga, Ikki qalbga tutashgani rost (H.O.) 7. Uning qo‘shig‘i dam\_eshitilib, dam yo‘q bo‘lib ketar edi (S.A.) 8. Otabek ko‘zini to‘ldirib binoga qaradi, go‘yo bu qarashda u dunyo malagi bilan vidolashar edi (A.Qod.) 9. U ketishni istamas edi, negaki qishlog‘ining har qarich yeri uning uchun tabarruk edi. 10. Roviylar nasihat qiladilarkim: yo‘lda qaroqchilar mavjudligini bilgan tadbirli sayyoh yolg‘iz yurmaydi (T.Mal.)

#### ***44-mashq. Yuklamalarni tuzilishiga ko‘ra turlarga ajratib yozing.***

1. Xuddi oq yaktak kiygan chavandozga o‘xshaydi. (O‘.U.) 2. Qishloq o‘rtasidan kesib o‘tgan soyning shovillashi eshitilmas, faqat daraxtzorlar, xarsanglar orasidan buralib-buralib o‘tishi ajib bir manzara hosil qilar edi. (S.A.) 3. Necha kundan beri qidirib yurib, Roziyani endi topgan paytida nahotki birpasgina qarab turmay ketib qolsa? (P.Q.) 4. Bundan buyon sira minmaganim bo‘lsin, necha marta naq uchib ketay-ketay dedim. (O.) 5. Erkaklar xotiniga tilla uzuklar olib beradi, o‘z kiyim-boshini o‘zi eplaydigan xotiningiz borligidan suyunsangiz-chi. (S.A.) 6. - ... Nurmatovni sizlar qancha bilsalaring, men ham shuncha bilaman-da. (A.Q.) 7. O‘n uchga kirgan yoshgina popukday qiz edi. (O.) 8. U faqat bir narsaga idrok etdi – otasining hukmi mutloq to‘g‘ri! (T.M.) 9. Uy yolg‘iz, faqat To‘ybeka bilan

Oysha ona; hollari nima kechdi, nima qo‘ydi, ma’lum emas. (A.Qod.) 10. Sog‘ bo‘lganda qanday, naq to‘lishib Rustami Doston bo‘lib ketgan. (S.A.)

***45-mashq. Gaplarni o‘qing. Modal so‘zlarni topib, ma’nosini izohlang.***

1. – Balki, bu ajablanarli holni o‘ylab ko‘rgandirsiz, deyman. (T.Mal.) 2. Ehson, hech shubhasiz uning yozuvchilik ishidagi kamoloti va o‘qishi qanday ekanini bilmoqchi. (A.Q.) 3. Albatta, bu sog‘ingan qishlog‘i manzaralariga to‘yishdan, yor-birodarlari bilan diydor ko‘rishishdan. (S.A.) 4. – Bilmadim, juda zarur shekilli, «oldingga solib kel» degan ekanlar. (Ch.) 5. Ehtimol, – dedi Otabek va nima uchundir g‘ayri ixtiyoriy bir tebrandi. (A.Qod.) 6. ... Xullas, paxtachiligidan, xususan, uning seleksiyasida g‘oyat muhim kashfiyat yuzaga kelayotganini, g‘oyat muhim hikmat tug‘ilayotganini his qilib turibman. (O‘.U.) 7. – Demak, mening vazifam ariza ko‘rish bilan daraxt o‘tqazish ekan-da? (Sh.R.) 8. Domla anglayolmadi, shekilli, mirzaning so‘nggi so‘zini savol shaklida qaytardi. (Ch.) 9. – Menimcha, u sizni yomon ko‘rmasa kerak. (A.Q.) 10. Haqiqatan ham, u g‘alati ahvolga tushib qolgan edi. (M.I.) 11. Umuman, tog‘liklarning o‘z o‘jar qonunlari bo‘ladi. (S.A.) 12. – To‘g‘ri, birdan ikki taraf bilan yog‘iylashish yaxshi emas. (P.Q.)

***46-mashq. Gaplarni o‘qing. Modal so‘zlarni topib, to‘liq morfologik tahlil qiling.***

1. – Yo‘q, domla, bunday emas. Albatta, bu harakat bor, ammo, nazarimda tarqoq. (A.Q.) 2. – Haqiqatan, mirza, dag‘alligim bor, -kuladi boy. (O.) 3. Ehtimol, shu o‘tirish bahonasi bilan fan haqida, uning kelajagi va xilma-xil muammolari haqida bahs yuritilar. (O‘.U.) 4. Darhaqiqat, qo‘riq va bo‘z yerlar poyonsiz edi. (Sh.R.) 5. Ehtimol, juda qiziqdir, o‘rganib olsam bir kun ish berib qolar, deb o‘yladim... (X.T.) 6. Menimcha, bu yolg‘on bo‘lsa kerak. (X.T.) 7. Ehson, hech shubhasiz uning yozuvchilik ishidagi kamoloti va o‘qishi qanday ekanini bilmoqchi. (A.Q.) 8. – Ayniqsa sizning menga saqlag‘ak ishonchingiz tugalganga o‘xshab, o‘zimdan qandog‘ kamchilik o‘tkaniga hayratdaman. (A.Qod.) 9. – Juda yaxshi. Demak, tezlatsin, shunday deb yozing direktorga. (Sh.) 10. Chamasi, barvaqt bo‘lishiga qaramasdani, nevaralari uxbab qolishgan. (O.Y.) 11. – Mehmon ertaga ketadi shekilli, kuzatmaymizmi? (T.Mal.) 12. – Mayli, bo‘lar ish bo‘pti. Endi uni kuzatib bo‘lmaydi. (S.A.) 13. – Vatan, albatta. Ammo

men... balki qaytib kelolmasman. Kulbamda kitoblarim, loyihalarim qolgan, Tohir jiyan! (P.Q.) 14. To‘g‘ri, G‘ulomjon shu dam kecha ashula aytgan yerida, saman ustida xomush bo‘lib turardi (M.I.)

**47-mashq. *Gaplarni o‘qing. Undov so‘zlarini topib, ma’no va grammatik xususiyatlarini izohlang.***

1. – Hay-hay, tavba degin, qizim!-ko‘zlarini alaytirdi otasi. (O.)
2. – Voy, nega unaqa deysiz! Tavba deng! Sizga nima bo‘ldi? Sizga nima bo‘ldi. (S.A.) 3. «Vodarig! Boshimda tag‘in ne savdolar bor?...» (O.Y.) 4. «Ey qo‘ying, boshimni og‘ritmang sizziz ham dardim oshib-toshib yotibdi», dedim-a?! (O‘.U.) 5. – Voy-bo‘, ariqda suv yo‘qmi, qizim, -deb Shermat o‘rnidan irg‘ib turdi. (O.) 6. O, yo‘q, bunday qalbni ko‘ra bilish uchun bunday qalbga ega bo‘lish kerak. (M.I.) 7. – Ofarin! juda to‘g‘ri o‘xshatdingiz. Qalay, eksponatlarga boymi... boyitishibdimi? (Sh.) 8. – Eh, attang, attang, qanday beg‘amlik! – dedi u jahli chiqib. (Sh.R.) 9. Ajabo, o‘sanda umrning eng qorong‘i damlariday tuyulgan, endi bilsa hayotining eng betakror, eng ma’sud onlari bo‘lgan o‘sha kunlar qachon o‘tib ketdi? (O.Y.) 10. – Ha, balli! Siz hamma ishlaringizni o‘sha ilgarigi sur’atda davom ettiraverasiz. (O‘.U.)

**48-mashq. *Gaplarni o‘qing. Undovlarni topib, ma’nosiga va tuzilishiga ko‘ra turlarga ajrating.***

1. – Voy-voy-ey judayam charchadim... dedi kerishib Ra’no va ishpechina yig‘a boshladи. (O.) 2. Aravakashlar «hay-hay», «chup-chup» deya shovqin bilan ko‘chani boshga ko‘tarar edilar. (O.) 3. – E, tejalmay o‘lsin. Dunyoga odam ikki marta keladimi? (S.A.) 4. O, yulduzlar, sehrli yulduzlar! U qirq yil senlarning sirlaringni bilmoq niyatida yashadi, sanoqsiz tunlarni bedor o‘tkazdi. (O.Y.) 5. Hozir uyida. Kecha boruvdim, belini ushlab, sal-pal yuryapti... Voy-vo‘-o‘y... (O‘.U.) 6. – Ajabo! – dedi endi yo‘g‘onlasha boshlagan o‘smir ovozi bilan. – Tog‘ cho‘qqisiga ham zinapoya bilan chiqurlarmi? (P.Q.) 7. – Bay-bay-bay, tishni sindiradi degani rost ekan, lekin mazasi yomon emas. (O.) 8. – Assalomu alaykum! O‘zingizga ham muborak bo‘lsin, Hayotxon. (M.I.) 9. Oh, mening buvijonim o‘zi boshqacha-da. (X.T.) 10. .... Ana u qurumsoqlar-chi, bay, bay, bay... biram ko‘ngli egri – yey-y... baloga uchrasin. (A.Q.) 11. – Ey, la’nati, qachon senga aql bitadi, bu ahillik emas, g‘aribu benavolik. (Sh.) 12. – Oho, – dedi, bola o‘zini tutolmay. Uning yuzlari yorishib, yuragi g‘urur bilan to‘ldi. (Sh.R.) 13. Vo darig‘! Bu ne sinoat? Shaharga

borib, o‘g‘lidan xabar olish o‘rniga nega yana uyiga qaytib keldi? (O.Y.) 14. Zindongami? Eh, u bizning o‘z xonamizku...? Yo‘lin o‘zim xo‘p bilaman, ovora bo‘lmang! Ulug‘bek yo‘q, demak butun shahar zindon-da! Emish-demish, emish-demish! Bay-bay-bay-bay... (M.Sh.)

***49-mashq. Gaplarni o‘qing. Undovlarni topib turlarga ajrating. His-hayajon undovlarining ma’nolarini izohlang.***

1. – Voy... – dedi Munisxon, so‘rashgani qo‘l uzatib, -shoirlik nulluq bo‘lsin, kecha majlisga borgan ekansiz. (A.Q.) 2. – Obbo, nafsi buzuq sira bu qiling‘ingni qo‘ymading! – dedi ranjib shogirdlardan biri. (O.) 3. – Iya, siz ketmaysizmi, aya? (S. A.) 4. – Shu bo‘y-basting bilan gadolik qilib yuribsanmi? – dedi, qo‘rs ovozda. -Barakallo senday bahodirga! (O.Y.) 5. – Eh, jon qizim, ko‘nglim notinchligini bilsang edi... (Sh.R.) 6. – Assalom, xush kelibdilar, marhabo! – dedi otasiga bukilib salom berib. (O.) 7. – Hoy, birodar, turing, shaharga keldik, deb uyg‘otib, qoldi. (M.I.) 8. – Ey, muhtaram domla! ... – dedi va chetlanib yo‘l berdi. (A.Q.) 9. – «Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar... Uff» (A.Qod.) 10. Rahmat! So‘zimizni yerda qoldirmabsiz. Keling qani? Ey, attang! Shu bahona bilan tanishib olardik. (Sh.) 11. – E, qandingni ur, azamat, o‘zimizda bor ediku, ovora bo‘psan-da. (Sh.R.) 12. Marhabo, ey samovotning oltin elchisi! Necha beling shuncha buzik, charchab qoldingmi? Oh azizim, ming-ming yillar yiroq yo‘llardan yurgan yo‘lchi tolib qolsa, taajjub emas! (M.Sh.) 13. – Voy-bo‘-o‘, yonib ketibsiz-ku, a, cho‘milib chiqa qoling, dedi mehribonlik bilan. (O‘.U.) 14. – Balli, mana endi o‘zingizga keldingiz. Mana bu yigit kishining ishi! (O.) 15. – Ofarin!, yo‘limiz bir, to‘g‘ri gap!-qichqirdi orqadan rus tilini tuzukkina tushunadigan bir usta. (O.)

***50-mashq. Gaplarni o‘qing. Taqlid so‘zlarni topib, ma’nosiga ko‘ra alohida ustunlarda yozing.***

1. Ona uning qirt-qirt qilib saqol qirishiga qarab ich-etini yeb o‘tirardi. (S.A.) 2. Tanga yoqadigan erta bahor shabadasi g‘ir-g‘ir esib, odam ko‘ngliga allaqanday tuyg‘ular soladi. (S.A.) 3. Javob o‘rniga eshik zulfinlarining sharaq-shurug‘i eshitildi. (O.Y.) 4. Darhaqiqat, o‘rik bu yil misli ko‘rilmagan darajada sergul bo‘ldi, katta-kichik novdalar shig‘il-shig‘il gulga ko‘milib, endigma kurtakdan chiqqan nimjon yaproqlarni ham yashirgan edi. (Sh.R.) 5. Suruvlar g‘uj-g‘uj bo‘lib kelayotganiga qaraganda yoyilib yurgan

qo‘ylar emas. (P.Q.) 6. Otin bibi darang-during qilib sandiqni ochdi. (O.) 7. Qizlar sekin shivirlashib piq-piq kulib qo‘yardilar. (O.) 8. – Kishanning kalitini ber! – dedi erkaklardan biri qo‘rqnidan dag‘-dag‘ titray boshlagan saqolli soldatga. (M.I.) 9. Uyiga qaytsa, maktabda duv-duv gap. (Sh.) 10. Saroy qop-qorong‘i tinch uyquda ammo, bu tinchlikni saroy otxonasidagi otlarning kurt-kurt xashak chaynashlari va atrofdagi xo‘rozlarning qichqirishlarigina buzar edilar. (A.Qod.)

**51-mashq. *Gaplarni o‘qing. Taqlid so‘zlarni topib ma’nosini izohlang. Gapdagi vazifasini tushuntiring.***

1. Atrofda piqir-piqir kulgi boshlandi. (A.Q.) 2. Ular to‘rtta edi; undan bundan gangur-gungur gaplashib, birovi tepalik birovi jiyak, birovi gardish tikish bilan mashg‘ul. (O.) 3. Unga jovdirab boqqan Dildorning ko‘zlaridan duv-duv yosh oqardi. (S. A.) 4. Urgut tog‘laridan g‘ir-g‘ir shabada esib turgan, iliq bahor oqshomi edi. (O.Y.) 5. Yo‘lakning oxirida, milt-milt yongan shu’la ko‘rindi. (O.Y.) 6. Dukur-dukur oyoq tovushlari yaqinlashib, qulf-kalitlarning sharaq-shurug‘i eshitildi. (O.Y.) 7. Robiya yuzini qo‘llari bilan to‘sib yum-yum yig‘lay boshladi. (P.Q.) 8. Dehqonlar ho‘ng-ho‘ng yig‘lab, ixlos bilan eshitar edilar. (O.) 9. Charx yonida ertadan qora kechgacha o‘tirib ip yigirishga charx g‘uv-g‘uvidan quloqlarini bitirishga majbur qilgan kuch, balki bolalariga bo‘lgan o‘sha mehru muhabbatidir. (M.I.) 10. Onasi qizini ko‘ksiga bosib piq-piq yig‘ladi. (M.I.) 11. Kun botishga yaqin sal dim bo‘lib turadi-da, keyin g‘ir-g‘ir shamol esib qoladi, kunduzining butun xordig‘ini chiqarib yuboradi. (Sh.) 12. U hamon dag‘-dag‘ titrar, nazarida mudhish bir chohga qulab tushayotganday tuyular, lekin endi to‘xtab, orqaga qaytishning iloji yo‘qligini ham sezardi. (O.Y.) 13. – Qoyil qildingiz! – dedi ko‘zi jiqliq yoshlanib. (O.U.) 14. Qizning yuragi duk-duk urardi. (O.)

**52-mashq. *Gaplarni o‘qing. Mustaqil, yordamchi so‘z va alohida olingan so‘zlarni aniqlab, to‘liq morfologik tahlil qiling.***

1. Osmon ko‘m-ko‘k. Unda-bunda suzib yurgan oq bulut parchalari go‘yo qishdan qolgan xiralik g‘uborni artib yuborganday. (A.Q.) 2. Madrasa talabalari orasida hatto yigirma-yigirma besh yil mobaynida matonat va ijтиҳод bilan tahsil qiluvchilar borligini aytdi. (O.) 3. -Qanaqa beg‘am bolasan? Ertaga to‘y bo‘lsa-yu, bu tentak allaqayoqlarda daydib yursa. (S. A.) 4. – Gapiring tezroq nima demoqchisiz? – dedi u hansirash bilan. (Ch.A.) 5. Kishining boshiga tushgan kulfat nechog‘lik og‘ir bo‘lmasin, uni sabru, toqat va iroda

bilan yengish mumkin. (O.Y.) 6. Biror kasbni chin yurakdan sevib qolsang, uning mashaqqatlari jonga huzur bag‘ishlarkan. (X.T.) 7. Avvalo qishning sovuq nafasi seziladi. So‘ng tog‘larning, uning etagidagi qishloqlarning aybini berkitmoqchi bo‘lganday qor yog‘a boshladi. (T.M.) 8. E, peshonam buncha sho‘r bo‘lmasa? Qaysi gunohlarim uchun menga bunchalik jazo! (M.) 9. ... orqa tarafdagи tut barglari shitir-shitir qimirlab, yer ostidan chiqqandek kutilmaganda Muhammad aka paydo bo‘ldi. U ariqdan gup etib sakrab o‘tdi-da, bosvoldini avaylab yerga qo‘ydi. (O‘.U.) 10. Mashina keng yo‘lga chiqdi-yu, yo‘lda tuyaday ko‘ndalang cho‘kib yotgan qumlargacha kelib, yurishi sekinlashdi. (Sh.R.) 11. Rangli bo‘yoqlar bilan ishlangan mo‘jazgina suratdagi go‘zal qiz shu payt unga tirik bir odam bo‘lib ko‘rinadi. (P.Q.)

## **SHARTLI QISQARTMALAR**

A.N. – Alisher Navoiy  
A.Q. – (Abdulla Qahhor)  
A.Qod. – Abdulla Qodiriy  
A.S. Ekzyuperi- Antuan de Sent-Ekzyuperi  
E.V. – Erkin Vohidov  
J.Vern – Jyul Vern  
H.O.-Hamid Olimjon  
H.G’.- Hamid G’ulom  
M. – Mirmuhsin  
M.Do’st. – Murod Muhammad do’st  
M.I. – Mirzakamol Ismoiliy  
M.Sh. – Maqsud Shayhzoda  
N.S.- Nazir Safarov  
O.-Oybek  
O.Y. – Odil Yoqubov  
P.Q – Pirimqul Qodirov  
Q.H.- Qudrat Hikmat  
S.A. – Said Axmad  
S.B.- Sergey Borodin  
Sh.R. – Sharof Rashidov  
Sh.R.Term. – Shafoat Rahmatullo Termiziy  
Sh.X.- Shukur Xolmirzayev  
T.Mal. – Tohir Malik  
T.M. – Tog‘ay Murod  
X.T. – Xudoyberdi To‘xtaboyev  
O‘.U. – O‘ktam Usmonov  
O‘.H.- O‘tkir Hoshimov  
G‘.G‘.- G‘ofur G‘ulom  
Ch. – Cho‘lpon  
Ch.A.-Chingiz Aytmatov

Ona tilidan mashqlar to‘plami: [Matn]: metodik qo‘llanma /  
M.Jumaniyozova, A. Atajanova – T.: Bayoz, 2021. – 48 b.

ISBN 978-9943-6370-3-0

UO‘K: 811.512.133(076.1)  
KBK: 81.2(5Ўзб)я7

**Muhabbat Jumaniyozova  
Anorgul Atajonova**

# **ONA TILIDAN MASHQLAR TO‘PLAMI**

Muharrir	B. Botirov
Texnik muharrir	Shohruh Botirov
Dizayner	Bahodir To‘xliyev
Sahifalovchi	Bekzod Raxmatov

Nashriyot litsenziyasi: AI №234, 11. 02. 2013.

Bosishga ruxsat etildi: 27.04.2021.

Ofset qog‘izi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16.

Times garniturasi. Ofset bosma.

Hisob nashriyoti t.: 2, Shartli b. t.: 3.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 19.

“BAYOZ” nashriyotida nashrga tayyorlandi

“BAYOZ” MChJ matbaa korxonasida chop etildi.

Toshkent. Lutfkor 1-tor ko‘chasi, 1-uy.



Сканировано с CamScanner